

Mutasaddilardan javob keldi

Bizga yetib kelmagan xatlar...

Mutasaddilar mazkur xatni tahririyatimiz elektron pochtaga 2019-yilning 15-iyul kuni jo'natganligini iddao qilmoqda. Ammo elektron pochtaga va tahririyat xodimlari qo'lga bu xat ular aytgan sanada yetib kelmagan...

3-bet

So'z tarixi — o'z tariximiz

Navoiy asarlarini to'g'ri o'qiyamizmi?

Chig'atoy tili o'zbek tilining eski varianti sifatida tan olindi, uning yodgorliklari O'zbekistonda o'rganiladi, chop etiladi...

Navoiy tili biz darsliklarda o'qib o'rgangandan farq qilgan ekan, u qanday shaklda bo'lgan? Uning talaffuzini tiklay olamizmi?

10-bet

Abituriyentlar uchun!

Ona tilidan testlar tahlili

Mazkur sonda ushbu to'planning "Til haqida umumiy ma'lumot. Fonetika" sarlavhasi ostida berilgan 24 ta test javoblari hamda ayrim yechimlar taqdim etilmoqda.

Ona tili va adabiyotdan testlar

11-12-betlar

Kuch — bilim va tafakkurda

Marifat

1931-yildan chiqq boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2020-yil 5-fevral, chorshanba № 6 (9279)

Xalq ziyolilari gazetasi

9-fevral — Alisher Navoiy tavallud topgan kun

Navoiyni o'rganish kaliti



Umumiy o'rta ta'lim maktablari-ning 8-sinfida buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiyning kichik lirik asarlaridan namunalarini o'rganish ko'zda tutilgan. Darslikda shoirning "Gardun gah manga jafu-u dunluq qildi...", "Ahhob, yigitlikni g'animat tutunguz..." deb boshlanuvchi, "Ey umri aziz" va "Bo'lmas emish" radifli ruboiylari, "Bormog'in", "Sarvi gulruksoridin", "Butmagan" tajnisli tuyuqlari va "Yuqar yamonlig' angakim, kirar yamon el aro...", "Ulki, sanga eldin erur aybgo...", "Men — sinuq, ko'nglum — sinuq, sabrim uyi — xud yerga past..." deb boshlanadigan fardlari tahlili o'rin olgan. Har qanday asarning ma'no-mazmuni birlamchi hisoblanadi, albatta. Lekin har qanday ma'no-mazmun shaklga joylashtiriladi. Shuning uchun asar badiiyatini o'rganishda shakl va mazmun uyg'unligidan kelib chiqish lozim.

(Davomi 8-9-betlarda.)



Hozir umumta'lim maktablari o'qituvchi va o'quvchilari uchun ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, turli ko'rik-tanlovlar juda ko'payib ketdi. Xalq ta'limi vazirligining 20 dan ortiq tanlovlari bor, undan tashqari viloyat hokimligi, tuman hokimligi, viloyat XTb, tuman XTb, Yoshlar ittifoqi, Xotin-qizlar qo'mitasi va boshqalarning tadbirlari ham kam emas. Ayniqsa, mart-aprel oylari tadbirlar mavsumiga aylanadi. Qachon bu tadbirbozliklarga chek qo'yiladi?! Qachon o'quvchilar tinchgina o'qiydi? Axir hamma narsada me'yor kerak-ku!

Nuriddin JO'RA

Abituriyent imtihondan yiqilsa, u uchun yana imkoniyat bor. Avval olgan bilimlarini ozgina qaytarib, kelgusi yil talaba bo'la oladi. O'qituvchi attestatsiyadan yiqilsa-chi? 55 dan kam ball olgan muallim "O'qituvchilikka noloyiq" degan ta'rif bilan qayta tayyorlovga tavsiya qilinadi. Aslida, u yerdagi o'qish bilan attestatsiya savollarida anchagina farq bor. Yiqilgan ustozga oson emas. O'qituvchi bir oy oilasini, ishini tashlab, umid bilan borsa-yu, hech qanday natijaga erisholmasa? Savollar olingan metodik kitoblarni ham yo'q. O'qish va test bir-biriga mos holatda bo'lishini istardik.

MahliyoXon MAHKAMOVA

Hamma joyda vahima. "O'zbekistonga ham virus kelibdi". Olloh nazari tushgan yurtida yashayapmiz, xotirjam bo'lishni tavsiya qilardim. Maktab o'quvchilaridan ham koronavirus haqidagi diktantlar olinmoqda. 8 yoshli bolaning ham yuragida qo'rquv, hadik. Uyg'a kelib ota-onasini battar vahimaga soladi. To'g'ri, ehtiyotkorlik, ogohlik juda muhim, ammo bolalarimizning yuragiga g'ul-g'ula solavermaylik. Maktab o'quvchilariga bu kasallik haqida ma'lumot berib, shaxsiy sanitariya va gigiyena qoidalariga rioya qilishlarini tushuntirish kerak. Maskani kiy, har 3 soatda uni alishtir degan gaplar o'quvchini darsdan ham chalg'itadi.

G'ayratjon QORABEKOV

Tumaningiz nechanchi o'rinda?

Yoshlarning tumanlar kesimida oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirishi ko'rsatkichlari

Birinchi o'ntalik (Birinchi o'ntalikda Buxoro viloyatidan 5 ta tuman)

T/r	Tuman nomi	Abituriyentlar soni	Talabalikka tavsiya etilganlar soni	%
1.	Shofirkon tumani	5009	1176	23,48
2.	Qiziltepa tumani	3763	865	22,99
3.	G'ijduvon tumani	7169	1514	21,12
4.	Vobkent tumani	3700	780	21,08
5.	Peshku tumani	3133	656	20,94
6.	Navoiy shahri	5406	1093	20,22
7.	Qorako'l tumani	4917	961	19,54
8.	Nukus shahri	10515	1911	18,17
9.	Konimex tumani	1175	213	18,13
10.	Tomdi tumani	262	47	17,94

Oxirgi o'ntalik (Oxirgi o'ntalikda Toshkent viloyatidan 5 ta tuman)

T/r	Tuman nomi	Abituriyentlar soni	Talabalikka tavsiya etilganlar soni	%
194.	Zangiota tumani	7273	405	5,57
195.	Urgut tumani	10245	570	5,56
196.	Xonobod shahri	805	44	5,47
197.	Chinoz tumani	3823	200	5,23
198.	Asaka tumani	5998	309	5,15
199.	Mirzacho'l tumani	1871	93	4,97
200.	Quyichirchiq tumani	2940	137	4,66
201.	Oqqo'rg'on tumani	3812	170	4,46
202.	Qorasuv shahri	429	19	4,43
203.	Yangiyo'l tumani	5418	235	4,34

O'qituvchi minbari

“Ma'rifat” dan yuz o'girmang, muallim!

Assalomu alaykum, “Ma'rifat” gazetasi xodimlari. Keyingi paytda obuna borasida ko'nglimdan kechayotgan xavotirli mulohazalarimni siz bilan o'rtoqlashgim keldi. To'g'rirog'i, hamkasblarimga aytadigan ikki og'iz so'zimni sizlar orqali yetkazishni lozim topdim.

Respublikamizdagi davriy nashrlarga munosabat yoki boshqacha qilib aytganda, obunaning ahvoli o'z yo'liga. Ya'ni obuna haqida har xil fikr bildirish va uni turlicha izohlash mumkin. Ammo men, oddiy bir o'qituvchi sifatida, o'qituvchilar gazetasiga obunaning nechog'lik sustligini bilganimdan keyin mamlakatimizdagi maktablarda faoliyat yuritayotgan aksariyat hamkasblarimizning ma'rifiy salohiyatlari borasida jiddiy shubhaga tushib qoldimki, buni yashirishning iloji bo'lmayapti.

Hammamizga ma'lum, aynan biz, o'qituvchilarning ulug' ustozlarimiz — yaqin 100–120 yil ichida yashab o'tgan buyuk jaddidlar bor. Behudiy, Ibrat, Avloniy, Fitrat, Munavvarqori singari ma'rifatparvarlar haqida ko'p gapirishdi, ko'p yozishdi. Ular yurtimizda gazetalar orqali ilm chirog'ini yoqqan nur sohiblari edi. Ulug' jaddidlar to'g'ri aqidalari haqqi-hurmati, mamlakatda yoppasiga gazetadan voz kechilgan taqdirda ham o'qituvchining qo'lida albatta gazeta bo'lishi kerak! Hech kim gazeta o'qimay qo'yganda ham o'qituvchi o'qishi, nainki o'qishi, gazetaning aslida ma'rifat manbayi ekani haqida bong urishi lozim. Ma'rifatparvar bobolarimiz bir paytlar gazeta chiqarib, unda haqiqatni yozganlari uchun qatl qilingan edilar. Holbuki, bugun o'sha ma'rifatparvarlarning chevaralari bo'lmish ko'pchilik o'qituvchilar o'zlarining soharlariga oid gazetadan kishi bilmas tarzda yuz o'girib o'tiribdi. Mamlakatda qancha maktab bor? Qancha o'qituvchi bor? O'qituvchilar gazetasiga bo'lmish “Ma'rifat”ning bugungi obunachilari soni qancha? Afsuski, “Ma'rifat” gazetasi obunaning ahvoli achinarli ekaniga guvoh bo'ldim. Vaholanki, bu eski zamonning gapini emas: Yevropada, Osiyoda, Amerikada, qo'yingki, dunyoning rivojlangan davlatlarida gazeta yashayapti. Yashayotganda ham ikkinchi umrini yashayapti. Bu endi mamlakat fuqarolarining madaniy ongiga, siyosiy-ijtimoiy faolligiga bog'liq.

Yurtimizda toki o'qituvchilarimizning ilm va nur manbayi bo'lgan gazetaga munosabatlari shunday ekan, o'quvchilar va ularning saviyalari haqida turlicha fikrlar bildirishga hali biroz erta, degan xulosaga keldim.

G'ayrat MAMARAJABOV,
Do'stlik tumanidagi
3-maktab o'qituvchisi

Yaqinda Sirdaryo va Surxondaryo viloyati xalq ta'limi tizimida faoliyat olib borayotgan o'qituvchi va rahbar xodimlar Davlat test markazi, Xalq ta'limi vazirligi, Respublika ta'lim markazi nazorati ostida o'z mutaxassisligi va O'zbekiston tarixi, o'zbek tili fanlari bo'yicha test sinovlaridan o'tdilar.

Toifa-ku kerak! Bilim-chi?

Men ham keksa pedagog bo'lsamda, shogirdlarim qatori shu sinovda qatnashdim. Afsuski, natijalarim, bilimlarim yildan yilga pasayib bormoqda. Buning sababini esa yosh bilan bog'lash unchalik ham to'g'ri bo'lmaydi. 2013-yili 94,6 ball to'plab, rus tili fanidan oliy toifani himoya qilgan bo'lsam, 2018-yili navbatdagi attestatsiyada 82,5 ball olib, toifamni qayta himoya qildim. 2019-yil dekabr oyida bo'lib o'tgan sinovda esa 68 ball yig'ibman.

Xulosa qilib aytmoqchiman, har bir o'qituvchi o'z bilimi, pedagogik faoliyatiga tanqidiy baho beradigan davr kelibdi. Maktab o'qituvchilari ham toifalarga bo'linib qoldi. Qaysiki o'qituvchi o'z ustida muntazam ishlasa, darslariga zamonaviy pedtsehnologiyalarni olib kirishga intilsa, o'quvchilar bilan ko'proq ishlasa, uning test sinovlaridan olgan ballari ham o'z-o'zidan yuqori chiqadi. Ammo, afsuski, safimizda fikran qoloq, birgina darslikka tayanib qolgan, bilimi sayoz o'qituvchilar ham bor.

Bugungi o'qituvchilarning aksariyati tayyor dars ishlanmalarini internetdan olib, darsiga puxta tayyorgarlik ko'rmay kelyapti. Hatto ayrimlar mutaxassislik fanlarining faqatgina o'zlar dars beradigan sinflar o'quv rejasidagi mavzularnigina biladi. Agar 10–11-sinfga dars o'tmasa, o'sha sinfdagi mavzularni bilmasligini ochiq aytishdan ham uyalmaydilar. Bu esa ularning mutaxassisligi bo'yicha Davlat ta'lim standartlari talablarini bilmasliklaridan dalolat beradi.

Shu o'rinda bir savol tug'iladi. Mamlakatimizdagi pedagoglar malakasini oshirish va qayta tayyorlash institutlarida bugun ahvol qanday? Nima sababdan yuqori ball olib, sertifikat bilan qaytgan ustozlarimiz bugun Davlat test markazi sinovidan juda past ball olishdi? Bu savollarimizga mas'ul shaxslar e'tibor qaratilishlarini istardim.

Majburiy obuna yo'qotildi. Lekin obunadan butunlay qo'l tortish holatlari ham ro'y beryapti. Endi qaysi gazeta yo jurnalga yozilish ixtiyoriy. Biroq o'qituvchilarimizning qo'lida tuman gazetasidan tashqari boshqa nashrlar ko'rinmay qoldi. Ayrim o'qituvchilarimiz qo'lida “toshi yengilroq” nashrlarni ko'ryapmiz. Bu nashrlar pedagogga nima beradi? Bizga o'z mutaxassisligimiz bo'yicha kerakli ma'lumotlarni taqdim etadimi? Agar biz ta'lim-tarbiyani qo'yib, “mish-mish”larni o'qishdan ortmasak, sinovdagi natijalarimiz hech qachon yaxshi bo'lmaydi. Bugun maktab direktori, sinf rahbarlari, umuman olganda, pedagoglar darslikdan tashqari qanday manbalarni o'qiydi? Mana shu og'riqli savolga dadil javob qaytara oladiganlar oz bugun.

Xalqimizda “Olim bo'lsang, takror qil, dehqon bo'lsang, shudgor qil” degan naql bor. Bu xuddi biz o'qituvchilarga tegishli. Bu maqolga muallim doimo amal qilishi kerak.

Samad SAFAROV,
Boysun tumanidagi
3-maktab o'qituvchisi

Biz nega gazeta o'qishimiz kerak?

Biz o'qituvchilar majburiy obuna, hashar, paxta terish, kommunal to'lov undirish yoki ko'chalarni obodonlashtirish-tozalash, xullas haqsiz, ya'ni pul to'lanmaydigan har qanday ishga (yana o'z asosiy ishingni chetga surib) jalb etilgan zamonlar hozir xuddi tushda kechgandek tuyuladi. Aslida bu kabi “yuk”lardan xalos bo'lganimizga ko'p vaqt o'tgani yo'q. Agar tan olib aytadigan bo'lsam, o'zim ham “jamoatchilik topshiriqlari” ko'rinishidagi majburiy mehnat, ta'limga taalluqli bo'lmagan yoki umuman aloqasi yo'q tadbirlarga chaqirilmay qolganimizga hamon ishonmay yuribman.

Biroq ayni kunlar o'qituvchining qadri, qaddi tiklanishi, mavqeyi ortishi va ziyoli sifatidagi qadr-qimmatini, ustoz sifatidagi obro'-e'tibori mustahkamlanishiga xizmat qilyapti. Bundan albatta g'ururlanishimiz kerak.

Shu o'rinda o'tgan yillar tajribasidan kelib chiqib

aytmoqchiman, biz haliyam o'zimizni o'zligimizni, pedagoglik mas'uliyatimizni to'la anglab yetmadik. Tevarak-atrofigizga nazar tashlang, aziz hamkasblar. Hamon bir amallab dars soatini qoraytirish, us-tozlik burchi hamda vazifasini ko'r-ko'rona uddalashdan narigra o'tmayotgan kasbdoshlar

imiz ozmi? O'z ustida ishlash, kasbiy mahorat va bilimini oshirishga erinib, 10–15 yillik almisoqdan qolgan konspektini qo'ltiqlab maktabga shunchaki kelib-ketayotganlar yo'q deysizmi? Oylab-yillab o'z faniga doir biror yangilik izlamaydigan, tadbir yoki amaliy seminar tashkil etmaydiganlar bor-ku safimizda. Qo'lga kitob olib, mutolaadan olgan taassurotlarini to'liqlanib hikoya qilish o'rniiga bozordan olgan mato yoki biror matohni og'iz ko'pirtirib ta'riflayotgan muallimlar yuribdiku davramizda!

Yaqinda sinov uchun bir ish qildim. Ta'lim xodimlarining ko'nglidan joy olgan nashrlardan biri “Murabbiy” gazetasining yangi sonini o'qib bo'lgach, o'zim kabi ona tili

va adabiyot fani o'qituvchilaridan birining xonasiga kirib, o'qish uchun berdim. U hafsalasizlik bilan oldi-da, stol ustiga qo'ydi. Oradan uch kun o'tgach, gazetani qaytarib olish uchun oldiga bordim. Ne ko'z bilan ko'rayki, gazeta qanday qo'yilgan bo'lsa shundayligicha stol ustida turgan ekan. Ko'rinishidan u hatto ochilmagan edi. Hamkasbim esa zo'r berib telefoniga yopishgan ko'yi stolga muk tushib, qandaydir video tomosha qilardi. U gazetani olayotganimga parvo ham qilmadi. Bu bilan nima demoqchiman? Atrofida bo'layotgan voqea-hodisalarga e'tiborsiz, yangilikka befarq, bir paytlar olgan bilimiga bino qo'ygan muallimdan saboq olayotgan o'quvchilarga achindim.

Endi yana majburiyatlar tamoyiliga qaytsak. Menimcha, pedagog vazifasi taqozosiga ko'ra, avvalo, gazeta-jurnal, kitob o'qishga majbur. Eng muhimi, hozir bizda tanlov imkoniyati bor. O'zingiz ixlos qo'ygan, qiziqarli, kasbiy faoliyatingizni olib borishingizda eng katta ko'makchi bo'layotgan ta'lim nashrlari, xususan “Ma'rifat”ga obuna bo'lish faqat manfaat keltirishiga ishonib. Axir yaqin-dayam bizga daxldor yoki aloqasi yo'q gazetalarga majburlab obuna qilishganda miq etmay yurgandik. Endi tanlov imkoniyati yaratildi. Buyog'iga adashmasligimiz, bizdan ta'lim-tarbiya olayotgan el farzandlarining kelajagi hurmati o'qishimiz va o'rganishimiz zarur.

Mashhura UBAYDULLAYEVA,
Uychi tumanidagi
2-maktab o'qituvchisi

Mutasaddilardan javob keldi

Bizga yetib kelmagan xatlar...

Gazetamizning 2020-yil 8-yanvar kungi sonida "Qonunbuzar hokimlar! Viloyat XTB boshliqlari ham!" sarlavhali maqola chop etilgan edi. Unda 2019-yil davomida "Ma'rifat" da e'lon qilingan tanqidiy maqolalardagi muammolarga yechim topilishini so'rab bir necha viloyat hokimlari va XTB boshliqlariga tahririyat tomonidan yo'llangan xatlarga javob bermagan rahbarlar tanqid ostiga olingandi. Maqola chop etilgandan qariyb bir oy o'tsa-da, Namangan, Buxoro, Qashqadaryo viloyati hokimlari, Xorazm, Buxoro viloyati XTBDan hech qanday munosabat bildirilmadi. Nihoyat 28-yanvar kuni Xalq ta'limi vazirligining Jamoatchilik va OAVlar bilan aloqalar bo'limi boshlig'i bizga gazetamizning o'tgan yilning 22-may kungi 39-sonida chop etilgan "Taomnomangizda nima bor?" maqolasi yuzasidan Buxoro viloyati XTB boshlig'i Amrillo Safarovga yo'llagan xatimizga kelgan javobni taqdim etdi. Quyida javob xati bilan tanishishingiz mumkin:

"Buxoro viloyati hokimligi xalq ta'limi boshqarmasi Sizga, gazetaning shu yil 39-sonida chop etilgan "Taomnomangizda nima bor?" nomli tanqidiy maqola yuzasidan viloyatning Shofirkon tumanidagi 25- va G'ijduvon tumanidagi 46-umumiy o'rta ta'lim maktablari oshxonalari faoliyatida aniqlangan kamchiliklar yuzasidan o'tkazilgan xizmat surishtiruv va kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida amalga oshirilgan ishlar natijalari bo'yicha quyidagilarni ma'lum qiladi.

Jumladan, maqola muallifi Shofirkon tumanidagi 25-, 38-umumta'lim maktablarining ta'lim-tarbiya jarayoni hamda o'quvchi va o'qituvchilar orasida sog'lom turmush tar-



zi sifatli tashkil etilganligi holatini ko'zdan kechirgan vaqtida tumandagi 25-umumta'lim maktabi oshxonasining sanitariya-gigiyena holati talab darajasida emasligi, qolaversa, tumandagi 38-umumta'lim maktabi kutubxonasidagi holat, ya'ni darsliklar va badiiy kitoblarning holati, ularning tartibsiz joylashtirilganligi va tozalik holati qoniqarsiz ekanligi aniqlangan.

Ushbu holatlarni tezda bartaraf etish bo'yicha tuman xalq ta'limi bo'limining ishchi guruhi tuzilib, yuqoridagi nomlari ko'rsatilgan umumta'lim maktablaridagi holatlar bir hafta muddatda joyida bartaraf etilgan.

Shuningdek, G'ijduvon tumani xalq ta'limi bo'limi tomonidan mazkur tanqidiy maqola 2019-yil 1-iyul kuni o'tkazilgan umumta'lim maktab direktori ishtirokidagi kengaytirilgan yig'ilishda muhokama qilingan. Xatda 46-maktab oshxonasi faoliyati bo'yicha ko'rsatilgan kamchiliklar joyida borib bartaraf etilgan.

Kamchiliklarga yo'l qo'yg'an mas'ul xodimlar qat'iy ogohlantirilgan.

2019/2020-o'quv yili uchun maktab tibbiy xodimlari va rahbarlari ishtirokida o'quvchilar salomatligiga zarar yetkazmaydigan taomnomalar ishlab chiqilgan. Mazkur taomnomalar asosida umumta'lim maktablarida issiq ovqat tashkil qilish vazifalari maktab rahbarlari zimmasiga yuklatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Bosh sanitar vrachi tomonidan tasdiqlangan ro'yxat asosida umumta'lim maktab o'qituvchilariga bolalar salomatligiga zarar yetkazuvchi mahsulotlarni sotish taqiqlangan.

Viloyat xalq ta'limi boshqarmasi kelgusida bunday kamchiliklarga yo'l qo'yilishining oldini olish maqsadida umumta'lim maktablari oshxonalarining faoliyatini o'z nazoratiga oladi".

Tahririyatdan: Mutasaddilar mazkur xatni tahririyatimiz elektron pochtaga 2019-yilning 15-iyul kuni jo'natganligini iddao qilmoqda. Ammo elektron pochtaga va tahririyat xodimlari qo'liga bu xat ular aytgan sanada yetib kelmagan...

"Qonunbuzar hokimlar! Viloyat XTB boshliqlari ham" ("Ma'rifat" 2020-yil 8-yanvar, 2-son) maqolasida Xorazm viloyati XTB boshlig'i Hamro Bektemirov nomiga ham gazetamizning 2019-yil 22-may kuni, 39-sonida chop etilgan "Sapchada qachon maktab quriladi?" hamda 2019-yilning 26-iyun kuni, 49-sonida chop etilgan "31 yilga cho'zilgan qurilish" sarlavhali maqolalar yuzasidan jo'natilgan xatlar ham javobsiz qolganligi aytilgan edi.

31-yanvar kuni "31 yilga cho'zilgan qurilish" maqolasi yuzasidan jo'natilgan xat qo'limizga kelib tushdi.

"Sizning Viloyat xalq ta'limi boshqarmasiga 2019-yil 10-iyul kuni 192-sonli xatingiz kirim qilingan. Ushbu xatda "Ma'rifat" gazetasida "31 yilga cho'zilgan qurilish" nomli tanqidiy maqola chop etilganligi ma'lum qilingan. Maqolada Gurlan tumani Xizir eli qishlog'idagi 32-maktabning qo'shimcha o'quv binosi 31 yildan beri yakuniga yetmayotgani, o'quvchilar ikki smenada ta'lim olayotgani ta'kidlangan.

2019-yil 15-iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev huzurida professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirish masalasiga bag'ishlab o'tkazilgan majlisda belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash, umumta'lim maktablarida ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, ta'lim muassasalarini yangi o'quv yiliga tayyorlash ishlarni jadallashtirish, kasb-hunar kollejlarning bino va inshootlaridan samarali foydalanishni tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2019-yil 16-iyul №14-244-son xatiga 1-ilova asosida respublikamiz bo'yicha 383 ta kasb-hunar kolleji Xalq ta'limi vazirligi tasarrufiga o'tkazilishi ko'rsatilgan. Shundan viloyatimiz bo'yicha 23 ta kasb-hunar kolleji binosidan umumta'lim maktablari foydalanishi taklifi tasdiqlangan. Gurlan tumani xalq ta'limi bo'limiga qarashli 32-umumta'lim maktabini o'z hududidan 50 m masofa oralig'ida joylashgan kasb-hunar kolleji qo'chirish va yangi o'quv yilini ushbu binoda I navbatda o'qish jarayonini yo'lga qo'yish rejalashtirilgan. Shu bilan birga maqolada ko'rsatilgan muammolar yillar davomida xalq ta'limi boshqarmasining e'tiborida bo'lganligi sababli bugun ijobiy hal bo'lgan. Hozirgi kunda faoliyat olib borayotgan Gurlan tumani 32-umumta'lim maktabi binosi va qurilishi tugallanmagan qo'shimcha binolar yangi o'quv yilidan davlat sherikchiligi asosida xususiy maktab ochish uchun taklif berilishi rejalashtirilayotganligini ma'lum qilamiz".



"Ma'rifat" va "Uchit'el. Uzbekistonda" gazetalarini Bosh muharrir X.Nisomova

Sening 2019 Yil 13 avgustda 148-sonda xatimgiza

Guror viloyati komissiyasi xalq ta'limi boshqarmasi Sizga, gazetaning shu yil 39-sonida chop etilgan "Taomnomangizda nima bor?" nomli tanqidiy maqola yuzasidan viloyatning Shofirkon tumanidagi 25- va G'ijduvon tumanidagi 46-umumta'lim maktablaridagi oshxonalar faoliyatida aniqlangan kamchiliklar yuzasidan viloyatning xizmat surishtiruv va kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida amalga oshirilgan ishlar natijalari bo'yicha quyidagilarni ma'lum qiladi.

Jumladan, "Ma'rifat" gazetasining muharriri Iroda Orinova boshchiligidagi ishchi guruhi Shofirkon tumanidagi 25-, 38-umumta'lim maktablarining ta'lim-tarbiya jarayoni hamda o'quvchi va o'qituvchilar orasida sog'lom turmush tarziini shifetini ta'minlash maqsadida xalq ta'limi bo'limining ishchi guruhi tuzilib, yuqoridagi nomlari ko'rsatilgan umumta'lim maktablaridagi holatlar bir hafta muddatda joyida bartaraf etilgan.

Ushbu holatlarni tezda bartaraf etish bo'yicha tuman xalq ta'limi bo'limining ishchi guruhi tuzilib, yuqoridagi nomlari ko'rsatilgan umumta'lim maktablaridagi holatlar bir hafta muddatda joyida bartaraf etilgan.


Shuningdek, G'ijduvon tumani xalq ta'limi bo'limi tomonidan mazkur tanqidiy maqola 2019-yil 1-iyul kuni o'tkazilgan umumta'lim maktab direktori ishtirokidagi kengaytirilgan yig'ilishda muhokama qilingan. Xatda 46-maktab oshxonasi faoliyati bo'yicha ko'rsatilgan kamchiliklar joyida borib bartaraf etilgan.

Kamchiliklarga yo'l qo'yg'an mas'ul xodimlar qat'iy ogohlantirilgan.

2019/2020-o'quv yili uchun maktab tibbiy xodimlari va rahbarlari ishtirokida o'quvchilar salomatligiga zarar yetkazmaydigan taomnomalar ishlab chiqilgan. Mazkur taomnomalar asosida umumta'lim maktablarida issiq ovqat tashkil qilish vazifalari maktab rahbarlari zimmasiga yuklatilgan.

Boshqarmasi boshlig'i

X.Nisomova



Uzbekiston Respublikasi viloyatlarining kattaqonliq sertifikatlangan o'qituvchisi, ma'rifat "Ma'rifat" gazetasini Bosh muharriri X.Nisomova

Sening Viloyat xalq ta'limi boshqarmasiga 2019 Yil 10 kuni xatim 1482-sonli xatimgiza kirib kelganligi haqida xatim "Ma'rifat" gazetasining shu yil 49-sonida "31 yilga cho'zilgan qurilish" nomli tanqidiy maqola chop etilganligi ma'lum qilingan. Maqolada Gurlan tumani Xizir eli qishlog'idagi 32-maktabning qo'shimcha o'quv binosi 31 yildan beri yakuniga yetmayotgani, o'quvchilar ikki smenada ta'lim olayotgani ta'kidlangan. Shundan viloyatimiz bo'yicha 23 ta kasb-hunar kolleji binosidan umumta'lim maktablari foydalanishi taklifi tasdiqlangan. Gurlan tumani xalq ta'limi bo'limiga qarashli 32-umumta'lim maktabini o'z hududidan 50 m masofa oralig'ida joylashgan kasb-hunar kolleji qo'chirish va yangi o'quv yilini ushbu binoda I navbatda o'qish jarayonini yo'lga qo'yish rejalashtirilgan. Shu bilan birga maqolada ko'rsatilgan muammolar yillar davomida xalq ta'limi boshqarmasining e'tiborida bo'lganligi sababli bugun ijobiy hal bo'lgan. Hozirgi kunda faoliyat olib borayotgan Gurlan tumani 32-umumta'lim maktabi binosi va qurilishi tugallanmagan qo'shimcha binolar yangi o'quv yilidan davlat sherikchiligi asosida xususiy maktab ochish uchun taklif berilishi rejalashtirilayotganligini ma'lum qilamiz.

Viloyat xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i X. Bektemirov

O'qing va uqing

O'quvchilar uchun: "The Essential 55"

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)

➔ 41-QOIDA.

Uyda telefon qo'ng'irog'iga javob berayotgan vaqtingizda, o'zingizni tutishingiz axloq qoidalariga mos bo'lsin.

➔ 42-QOIDA.

Ekskursiyadan qaytganimizdan so'ng menga yoki mening o'rnimdagilar istalgan boshqa o'qituvchiga rahmat ayting. Ushbu ekskursiyaga vaqt ajrata olganimiz uchun minnatdorlik bildiring, shuningdek, bunday imkoniyatdan foydalaningiz uchun xursand ekanligingizni ta'kidlang. Menga rahmatingiz kerak emas, menga kerak vaqtda, kerakli tarzda minnatdorlik bildirib olishni o'rganishingiz muhim. Bu odat qachondir ishni o'z tomoningizga og'dira olishda qo'l keladi.

➔ 43-QOIDA.

Ekskursiyaga chiqqan vaqtimizda eskalator xizmatidan foydalanish zaruriyati tug'ilsa, eskalatorning o'ng tomonida turishga odatlaning. Bu shoshilayotgan insonlarning chap tomondan erkin o'tib ketishlariga imkon yaratadi. Agar liftga, metroga yoki shunchaki biron eshikdan kirmoqchi bo'lsak, avval qolganlarning o'tib ketishini kuting, shundan so'ng o'zingiz kiring.

➔ 44-QOIDA.

Navbatga turgan vaqtimiz, tumaqator bo'lib tizilishamiz. Bunda oldingizdagi inson bilan orangiz 1 qadam bo'lishi kerak. Har doim to'g'ri qarang. Va hech qanday gaplashishlar bo'lmasin.

➔ 45-QOIDA.

Hech qachon navbatni buzmag. Agar sizdan oldingi inson turib qolsa (oldinga yurmasdan), unda hech narsa demang. Mayli, turaversin, faqat bu haqida meni ogohlantirib qo'ying. Men vaziyatni qo'lga olaman. Agar siz navbatni buzgan inson bilan bahslashsangiz, unda bu yaxshilikka olib kelmasligi mumkin. Bunday qilish yaramaydi, menga xabar qilsangiz kifoya. Iltimos, sinfdoshlaringiz bilan o'z o'rnida bahslashing. Yuzaga kelgan muammoni o'zingiz hal qilgandan ko'ra, menga maslahat solganingiz ma'qul.

➔ 46-QOIDA.

Kinoga tushganimizda hech qanday gaplashishlar bo'lmasligi kerak.

➔ 47-QOIDA.

Maktabga chipslar (qovurilgan kartoshka) olib kelmang.

➔ 48-QOIDA.

Agar maktabda kimdir sizni bezovta qilsa, bu haqida men bilishim kerak. Men sizlarning o'qituvchingizman (sinf rahbari), va mening vazifam sizga ko'z-quloq bo'lish hamda himoya qilish. Ushbu maktabda hech kimga sizni xafa qilishi yoki sizga noqulaylik tug'dirishi uchun imkon bermayman. O'z navbatida, o'zboshimchalik bilan vaziyatni qo'lga olishga urinmasdan, menga imkon berishingizni so'rar edim.

➔ 49-QOIDA.

O'zingiz ishongan narsada qat'iy turing! Aqlingiz va qalbingiz boshlayotgan yo'lda o'zingizni kuchli his qilsangiz, unda boshqa yo'lni tanlamang.

➔ 50-QOIDA.

Nekbin bo'ling va hayotdan zavqlaning. Ba'zi narsalar hatto xafa bo'lishga ham arzimaydi. Kelajakdagi istiqbollar haqida o'ylang va hayotingizdagi yaxshi narsalarga e'tibor qarating.

➔ 51-QOIDA.

Shunday yashangki, keyinchalik sira afsuslanmang. Agar biron ishni bajarishni istasangiz, bajaring! Hech qachon qo'rquv, ikkilanish yoki yo'lingizga to'g'anoq bo'ladigan boshqa hissiyotlarga berilmang. Agar biron narsani juda xohlasangiz, unda o'sha narsa uchun butun vujudingiz bilan kurashing. Agar biron ishni bajarishni juda ham istasangiz, faqat olg'a boring va toki o'z maqsadingizga erishmaguningizgacha to'xtamang. Agar biron orzuingiz bo'lsa, unda umringiz davomida o'sha orzu umidida yashash va oxir-oqibat uni ro'yobga chiqarish uchun qo'lingizdan kelganicha harakat qiling.

➔ 52-QOIDA.

Qayerdadir baribir xato qilishingizni hisobga oling. Xatolardan tegishli xulosa chiqarib, maqsadingiz sari yana olg'a intiling.

➔ 53-QOIDA.

Qanday holatda bo'lishingizdan qat'i nazar, vijdonli bo'ling. Hattoki, biron nojo'ya xatti-harakat qilib qo'ysangiz ham, vijdonan buni tan olib, menga xabar qiling. Chunki men bunday insonlarni hurmat qilaman va vijdonli ekanligingiz hisobiga qilgan nojo'ya ishingizni unutaman.

➔ 54-QOIDA.

Carpe Diem (vaziyatlardan rohatlaning). Odam bir marta dunyoga keladi, shu sababli kunlaringizni behuda o'tkazmang.

➔ 55-QOIDA.

Qo'lingizdan kelganicha, eng yaxshi inson bo'ling!

Xushnodbek XUDOYBERDIYEV
tarjimasi.

Tajriba

Bolani kitobga o'rgatish sirlari

Mashhur fransuz faylasufi Frans Bekon "Kitoblar tafakkur durdonalarini avloddan avlodga eltuvchi aql kemalaridir", deb bejiz aytmagan.

Bolalar kitobxonligini shakllantirishda maktab hamda ota-onalar zimmasiga nihoyatda murakkab va mas'uliyatli vazifa yuklanadi.

Ota-ona kitobdan foydalanishda quyidagi omillarga e'tibor berishlari lozim:

1. Maktabda o'qituvchi, uyda ota-ona bolada kitob o'qish ko'nikmasini hosil qilishi kerak. Bunda oddiydan murakkablikka, ya'ni murakkabligi jihatidan bolaning kamolot darajasiga mos bo'lgan kitoblar tanlash qo'l keladi.

2. Kitob tanlashda o'smiring ma'naviy darajasini hisobga olish lozim. Birinchi navbatda badiiy, keyinchalik ixtisosliklar bo'yicha kitoblarni tavsiya etish mumkin.

3. Kitob tanlashga ixtisoslashish. Bu tajriba AQSh ta'lim tizimida o'zini oqlagan. Ularda bolani 12 yoshga qadar ixtisoslashtirishga harakat qilinadi va shunga qarab kitob tanlab beriladi. Bu dastlab mutaxassislarni cho'chitgan edi, lekin Amerika ta'lim tizimining keyingi 30 yillik tajribasi o'smirlarni boshlang'ich sinf-

hisobga olishi yoki zarur hollarda mutaxassislar bilan maslahatlashishi kerak. Faqat o'zbek adabiyotigina emas, qardosh va chet el adabiyoti namunalaridan ham bolalarga tavsiya etish maqsadga muvofiq. Ko'pincha biz kuzatgan oilalarda kitob tanlash, uni o'qishga e'tibor beriladi-yu, lekin avaylab-asrashga befarq qaraydilar. Kuzatishlar natijasida darsliklar, juda ko'p rangli bolalarbop kitoblar yirtilib, chizilib, chiqindi qutilariga tashlanganligini guvohi bo'ldik. Bolalarga "Kitob ham nondek aziz"ligini tushuntirishda kattalarning o'zi ibrat bo'lishi zarur. Shunda o'smirlarda shaxsiy kutubxona tashkil etish istagi paydo bo'lsa ajab emas.

O'zim rahbarlik qilayotgan 4-sinf o'quvchilarining ota-onalari bilan hamkorlikda "Bir bolamga ikki kitob" shiori ostida amaliy ishlar olib boryapmiz. Bunda ota-onalar farzandiga bir oyda ikki kitob sovg'a qilishadi va bu kitoblarning barchasini farzandlari bilan birgalikda o'qib borishadi. Ushbu jarayon natijalarini kuzatib borib "Eng, eng, eng kitobxon yulduz!" devoriy gazetasi tashkil qildik. Bu gazetamizda bir oy davomida sinfda eng ko'p kitob o'qigan, eng ko'p she'r-u g'azallar

"Eng, eng, eng kitobxon yulduz!"



lardayoq ixtisoslashtirish samarali ekanligini isbotladi.

4. Kitobni ekspertizadan o'tkazish. Jamiyatimiz erkinlashib, demokratlashib borgan sari kitob nashr etish ishlarida ham erkinlik yuzaga kela boshladi. Shu ma'noda ota-ona bola uchun kitob tanlayotganda uni ma'no-mazmuni, uslubiy jihatdan mutaxassis ko'rigidan o'tkazib olishi maqsadga muvofiq. Bunday qilish tarbiyaning asosiy yo'nalishlaridan chalg'imaslikka, o'smir ma'naviy dunyosining to'g'ri shakllanishiga va qo'yilgan maqsadga yetishishga olib keladi. Bu tajriba o'zbek milliy pedagogikasi tajribasidan ham ma'lum.

5. Kitob o'qishini kuzatib, nazorat qilib borish.

Ota-onalar bolalarga kitob tanlashda o'smirlarning yoshi, ruhiyati, qiziqishi, didini

yod olgan, eng ko'p kitob sotib olgan, shahar va maktab kutubxonalariga a'zo bo'lgan o'quvchilarni saralab:


- "Eng zo'r kitobxon o'quvchi";
- "Eng zo'r notiq o'quvchi";
- "Eng zo'r she'rxon o'quvchi";
- "Eng zo'r muxbir o'quvchi";
- "Eng zo'r g'azalshunos o'quvchi"

kabi nominatsiyalar bilan rasmlarini olib, ularni rag'batlantirib boramiz. Bunday samarali ishlarga bosh qo'shgan ota-onalarga xat yoki ota-onalar bilan aloqa daftarlari orqali o'z tashakkurmohalarimizni bildirib boramiz. Shunday yaxshi natijalar bilan men o'z sinf rahbarlik faoliyatimni maroq bilan bajaryapman.

Muhabbat ALIMOVA,
Uchquduq tumanidagi 20-maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Ta'lim o'quvchida zavq uyg'otsin

O'tgan yili Prezidentimiz farmoniga binoan "O'qituvchi va murabbiylar kuni" arafasida "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlandim. Bunday yuqori e'tibordan keyin inson yanada kuch-g'ayratga to'larkan. O'ttiz yillik mehnat faoliyatim davomida shu narsaga amin bo'ldimki, kimyo fanini o'qitish jarayonida hali ochilmagan qirralar juda ko'p ekan. Qaniydi maktabdagi ta'lim jarayoniga biror-bir yangi g'oya kirita olsam, degan o'y menga tinchlik bermaydi.



To'ng'ich farzandim dasturchi. U menga bir videorolik ko'rsatdi. Rolikda Koreya Respublikasida interaktiv doska yordamida dars o'tilayotgani aks etgan. Qolaversa, bu usul bir qancha afzalliklarga ega, kimyo fani amaliy mashg'ulotlarida yetishmayotgan kimyoviy moddalarni

videotasvir orqali o'quvchilarga ko'rsatish uchun bu yaxshi vosita ekan, deb o'ylab qoldim. Faqat buning moddiy tomonini hal qilish kerak. Chamalab ko'rsam, bu doska mening mukofot pulimdan ham qimmatroq ekan. Agar yana ikki oylik maoshimni qo'shsam, yetardi, deb turganimda, o'g'lim yana boshqa roligni ko'rsatib qoldi. U yerda doska o'rnida elektron displeydan foydalanishayotgani aks etgan. Elektron displey ham, interaktiv doska ham bir xil vazifani bajaradi. Faqatgina interaktiv doska uchun xona qorong'iroq bo'lishi kerak ekan. Yana bir tomoni doskaning lampasi ma'lum bir vaqtgacha ishlaydi, so'ng so'nib bordi. Faqat elektron displey birmuncha

qimmatroq ekan. Endi ikki emas, to'rt oylik maoshimni to'plab, o'sha displeyni olishga qaror qildim va bunga erishdim.

Mana, o'quv yilining uchinchi choragidan boshlab elektron displeyli doska orqali dars o'tyapman. O'ylaganimdek, o'quvchilarning darsga qiziqishi o'z-o'zidan ortdi. Ularning ko'zida hayrat va zavq uchqunlarini ko'rsam, xarid qilingan doskaga sarflangan shaxsiy mablag'imni savob ishga bag'ishlaganimdan g'ururlanib ketaman. Zotan, ushbu displeyning afzalliklari ko'p ekan:

1. Moddalar tanqis bo'lgan laboratoriya tajribalarini elektron tarzda bajarish o'quvchilarda aniq tasavvur hosil qiladi.

2. Elektron displeydan foydalanib, dars davomida laboratoriyada bajarilishi xavfli bo'lgan tajribalarni o'tkazish imkoni mavjud (Misol uchun portlash, yonish yoki zaharli gaz ajralib chiqishi kabi).

3. Internet tarmog'iga to'g'ridan to'g'ri ulanib, mavzuga tegishli manbalardan foydalanish imkoni bor.

4. Davriy sistemaning elektron variantidan foydalanib, o'quvchilarga

yanada kengroq ma'lumotlar beriladi.

5. Elektron displey interaktiv doskaga nisbatan yorqinligi va ovoz kuchaytirgich jihozi bilan ajralib turadi.

6. Displeydan oddiy maktab doskasi o'rnida ham foydalanish mumkin.

7. O'quvchilarning fanga qiziqishi, dars samaradorligi yanada oshadi.

8. O'quvchilar o'zlarini zamonaviy dars jarayonida o'tirgandek his qilishadi.

Joriy yilning uchinchi choragidan maktablarda variativ o'quv rejasini amalda qo'llanilyapti. Unga ko'ra 11-sinfda iqtisod fani yo'nalishida matematika va ingliz tili, 10-sinfda tabiiy fan yo'nalishida kimyo va biologiya fanlari chuqurlashtirib o'qitilyapti. Hozir bu sinflarda kimyo fanini o'qitishda ko'p yillik tajribamdan kelib chiqib, ko'proq o'quvchilarni mustaqil masalalar tuzishga yo'naltiryapman. Bu metod bolalarni mustaqil fikrlashga, izlanishga o'rgatadi.

Gulchehra TURONOVA,
Bekobod shahridagi
16-umumta'lim maktabining
kimyo fani o'qituvchisi,
"Do'stlik" ordeni sohibi

Bilim bo'lsa, mas'uliyat ortadi

Geografiya darslarida juda ko'plab mavzular borki, ularni bolalarga tanishtirish barobarida tabiat ne'matlarini asrash, undagi hodisalarga befarq qaramaslik, ona tabiatning ertasi uchun javobgarlik hissini ham uyg'otib borish mumkin. 5-sinfda "Gidrosfera", "Dunyo okeani", "Okean suvining harorati va shorligi" mavzulari, 6-sinfda "Dunyo okeanining xususiyatlari", "Hind okeani", "Tinch okeani", 7-sinfda "O'rta Osiyoning daryolari, ko'llari va suv omborlari", "Yer osti suvlari" kabi mavzularda suvga bo'lgan munosabat, hayotiy ko'nikmalarni shakllantirib borish mumkin. Darslarda videoroliklar orqali o'quvchilar bilan Orol ko'li yoki dunyo okeanlariga va boshqa joylarga sayohat qilish imkoniyatiga egamiz. Eng muhimi, o'quvchilarga Yer sharida suvning o'rni ko'rsata olishimiz kerak bo'ladi.

Hayotni suvsiz tasavvur etib ko'raylik, inson necha kun suvsiz yashay oladi? Organizmimizning 60 foizi suvdan iborat, agar inson hujayralarini har kuni suv bilan ta'minlab turmasa halok bo'ladi. Suvning Yer sharida joylashuv, tabiatda tarqalishi, shundan qanchasi inson hayotida foydalanish uchun yaroqli ekanligi haqida o'qituvchi o'quvchilarga ma'lumot beradi. Tabiatda tarqalgan chuchuk suv bor-yo'g'i 1,7 foizni tashkil etadi. Bularning ham asosiy qismi muzliklarda to'plangan. Qor va yomg'irlarning yog'ishi natijasida hosil bo'ladigan daryo suvlarini tozalab ichimlik suvi sifatida xalqqa yetkazib berish uchun esa qancha mablag' zarur.

Tabiat bir-biri bilan chambarchas bog'lanib ketgan uzviy zanjiri tashkil etadi, agar bog'larda uzilish yuz bersa, bunda yana bog' hosil qilish uchun uzoq vaqt va mablag' kerak bo'ladi. Barchasini me'yorda ushlab turish uchun esa insoniyat ongini tarbiyalash, tabiatga mehr uyg'otish zarur.

Mohira TOHIROVA,
Samarqand shahridagi 40-maktab o'qituvchisi
Zebo ALIMOVA,
Samarqand shahridagi 29-maktab o'qituvchisi

O'quvchingiz tadqiqot qilmoqchimi?

Mamlakatimizda iqtidorli o'quvchilarni to'g'ri yo'naltirish, imkoniyatlarini yanada oshirish maqsadida rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribalaridan foydalanilgan holda ixtisoslashgan ta'lim muassasalari, Prezident va Ijod maktablari tashkil etilmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari va yuqorida qayd etilgan maktablarda "Kichik akademiya" faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish, iqtidorli o'quvchilarni tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirish ishlarini yanada yaxshilash uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Quyida maktablarda iqtidorli o'quvchilarni tadqiqotchilikka yo'naltirishga qaratilgan tavsiyalarni taklif etmoqchimiz.

Ilmiy tadqiqot ishi bilan shug'ullanish uchun maksimal imkoniyatlarini ishga solib bilim olishga intilayotgan, innovatsion g'oyalarni qabul qila oladigan va hayotning har xil holatlarida mustaqil, ongli va mas'uliyat bilan qaror qabul qilishga qodir bo'lgan bola tanlab olinmog'i lozim.

Kimyo fanidan iqtidorli o'quvchilarni dars va darsdan so'ng olib boriladigan barcha turdagi mashg'ulotlarda tadqiqotchilik ta'limiga yo'naltirish bolaning borliqini mustaqil o'rganishga nisbatan tabiiy intilishiga asoslanadi.

Iqtidorli o'quvchilarga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchi shaxsidagi mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlikni his etish, tanqidiy fikrlash kabi sifatlarini tarbiyalaydi.

Bunda o'quvchini ta'lim tizimiga moslashtirmay, balki o'quvchining individual xususiyatlarini inobatga olgan holda rivojlanishi uchun imkon beriladi.

O'quvchilarni kimyo fani bo'yicha tadqiqotchilik faoliyatiga o'rgatishdan maqsad:

- anorganik va organik kimyo

yo'nalishidagi tadqiqotchilik faoliyati ko'nikmalarini hosil qilish;

- mazkur fan bo'yicha o'quv dasturidan tashqari bo'lgan yangi bilimlar olishga qiziqtirish;

- ijodkorlik va kashfiyot yaratishning o'ziga xos qirralarini o'rgatish;

- o'z fikrlarini asoslash va tengdoshlari bilan o'rtoqlashishga o'rgatish, tadqiqot mavzulari bo'yicha laboratoriya ishlarini o'tkazish va kompyuter dasturlari bilan ishlash layoqatini tarkib toptirish;

- ilmiy-amaliy anjumanlarda ilmiy maqolalari bilan chiqish (taqdimot) qilishni o'rgatish, o'z fikr-mulohazalarini bildirish, yoshlarga o'z fikrini uqtira olish va to'liq yetkaza bilish ko'nikmasini hosil qilish.

O'quvchi bilishi zarur bo'lgan omillar:

- kimyo fani bo'yicha egallamoqchi bo'lgan yo'nalishini chuqur va atroficha bilishi, maxsus ilmiy, metodik adabiyotlar, ensiklopediya, buyuk allomalar, mutafakkirlar va olimlar tomonidan qoldirilgan ilmiy manbalarni doimiy ravishda o'rganib, o'qib borishga erishish;

- fan yangiliklaridan boxabar bo'lishi, ularga qiziqishi va mashg'ulotlarda shunday ma'lumotlardan foydalanishi;

- ilmiy-pedagogik vazifalarni hal etishga yangicha yondashishi zarur.

O'quvchining o'zini o'zgartirish, rivojlanishga qaratilgan topshiriqlar va birgalikda ishlash usullari:

- o'quv faoliyatini bahosiz bajarish bo'yicha topshiriqlar

lar (masalan, uyda turli kimyoviy reaksiyalarni tuzish, masalalarni ishlab kelish bo'yicha yo'llanma berish);

- o'quvchi tomonidan o'z xohishi bilan o'zining faoliyati natijalarini tahlil qilishi;

- o'qishdagi shaxsiy istiqbollarni belgilab olishga qaratilgan topshiriqlar (o'quv faoliyati natijalarini, shakl, muddatlarini rejalashtirish);

- o'z-o'zini rivojlantirishga qaratilgan subyektiv murakkab mashg'ulotlar va vaziyatlar (masalan, kimyo fanidan murakkab reaksiyalar tuzish, masalalar yechish, ilmiy yo'nalishdagi taqdimot tayyorlash hamda ularni oldingilari bilan taqqoslab, natijalari tahlil qilinishi);

- turli xususiyatlarning (sabr, ijod, o'zaro ta'sir qilish va boshqalar) namoyon bo'lishini talab etuvchi, o'quvchi o'z xohishidan kelib chiqib tanlay oladigan topshiriqlarni bajarishga imkoniyat yaratish.

O'qituvchi tomonidan beriladigan topshiriqlar turlari:

- o'z-o'zini anglash imkonini beruvchi topshiriqlar zaxirasini yaratish;

- o'z-o'zini baholash bo'yicha o'qituvchining tayyorlagan rejasini, sxemasi, algoritmi bo'yicha bajarilgan ishini tekshirish, xatolarini tahlil qilish;

- laboratoriya ishidagi amallarning ketma-ketligi, masala yechish usullarini tahlil qilish va o'z-o'zini baholash;

- o'quvchining o'quv faoliyatini subyekt sifatida o'z-o'zini baholashi;

- faollik darajasi, boshqa ishtirokchilar bilan hamkorligi, tashabbuskorligi, ijodkorligi bo'yicha o'quv faoliyatida o'zining ishtirokini baholashi.

Zuhra ASQAROVA,
Sirg'ali tumanidagi 6-IDUM
o'qituvchisi

Tumaningiz nechanchi o'rinda?

Raqamlar so'zlaydi. Davlat test markazi taqdim etgan ma'lumotlar hududlarda ta'limning ahvoli to'g'risida muayyan xulosa chiqarish imkonini beradi.

Yoshlarning tumanlar kesimida oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirishi ko'rsatkichlari aks etgan jadvalni e'lon qilyapmiz. Xulosa o'zingizdan, muhtaram mutasaddilar, o'qituvchilar, ota-onalar va yoshlar!

T/r	Tuman nomi	Abituriyentlar soni	Talabalikka tavsiya etilganlar soni	%
1.	Shofirkon tumani	5009	1176	23,48
2.	Qiziltepa tumani	3763	865	22,99
3.	G'ijduvon tumani	7169	1514	21,12
4.	Vobkent tumani	3700	780	21,08
5.	Peshku tumani	3133	656	20,94
6.	Navoiy shahri	5406	1093	20,22
7.	Qorako'l tumani	4917	961	19,54
8.	Nukus shahri	10515	1911	18,17
9.	Konimex tumani	1175	213	18,13
10.	Tomdi tumani	262	47	17,94
11.	Zarafshon shahri	3170	560	17,67
12.	Kogon shahri	1461	254	17,39
13.	Buvayda tumani	4588	796	17,35
14.	Buxoro shahri	6711	1162	17,31
15.	Olot tumani	2801	481	17,17
16.	Karmana tumani	4759	805	16,92
17.	Jondor tumani	4889	805	16,47
18.	Yangiariq tumani	3216	529	16,45
19.	Bag'dod tumani	5720	929	16,24
20.	Navbahor tumani	2965	477	16,09
21.	Urganch shahri	4772	762	15,97
22.	Buxoro tumani	4120	656	15,92
23.	Nukus tumani	1863	296	15,89
24.	Rishton tumani	6980	1080	15,47
25.	Xonqa tumani	5873	902	15,36
26.	Qorovulbozor tumani	798	119	14,91
27.	Romitan tumani	3490	516	14,79
28.	Dang'ara tumani	4070	598	14,69
29.	Kogon tumani	2285	335	14,66
30.	Mirzo Ulug'bek tumani	5807	845	14,55
31.	Qo'ng'iro't tumani	4155	601	14,46
32.	Bog'ot tumani	4042	581	14,37
33.	Uchko'prik tumani	5573	785	14,09
34.	Furqat tumani	3181	443	13,93
35.	Qonliko'l tumani	1958	271	13,84
36.	Nurota tumani	3491	481	13,78
37.	Pitnak shahri	888	121	13,63
38.	Farg'ona tumani	6642	897	13,50
39.	Gurlan tumani	5212	700	13,43
40.	Uchquduq tumani	1479	198	13,39
41.	So'x tumani	993	131	13,19
42.	Xatirchi tumani	8028	1055	13,14
43.	Yangibozor tumani	2795	366	13,09
44.	Mirobod tumani	2925	383	13,09
45.	O'zbekiston tumani	5197	673	12,95
46.	Chimboy tumani	3994	517	12,94
47.	Paxtachi tumani	4262	548	12,86
48.	Kegeyli tumani	3248	405	12,47
49.	Shovot tumani	4844	601	12,41
50.	Chortoq tumani	5369	666	12,40
51.	Samarqand shahri	9397	1159	12,33
52.	Taxtako'pir tumani	1245	153	12,29
53.	Urganch tumani	5367	657	12,24
54.	Qorao'zak tumani	1688	206	12,20
55.	Kosonsoy tumani	4741	578	12,19
56.	Yashnobod tumani	6280	765	12,18
57.	Yakkasaroy tumani	2309	278	12,04
58.	Xo'jayli tumani	3878	465	11,99
59.	Hazorasp tumani	4942	586	11,86
60.	Beshariq tumani	5968	705	11,81
61.	Norin tumani	4678	551	11,78
62.	Quva tumani	6954	819	11,78
63.	Farg'ona shahri	8445	990	11,72

T/r	Tuman nomi	Abituriyentlar soni	Talabalikka tavsiya etilganlar soni	%
64.	Oltiariq tumani	6787	791	11,65
65.	Sirg'ali tumani	5284	614	11,62
66.	Chilonzor tumani	5831	671	11,51
67.	To'rtko'l tumani	3824	438	11,45
68.	Qo'shko'pir tumani	5234	597	11,41
69.	Yunusobod tumani	8598	975	11,34
70.	Kitob tumani	8262	936	11,33
71.	Shumanay tumani	1821	206	11,31
72.	Taxiatosh shahri	1642	184	11,21
73.	Chust tumani	6959	764	10,98
74.	Yozyovon tumani	2883	315	10,93
75.	Qarshi shahri	10520	1143	10,87
76.	Ellikqal'a tumani	3690	400	10,84
77.	Narpay tumani	6386	689	10,79
78.	Qo'shtepa tumani	5067	546	10,78
79.	Nishon tumani	5653	600	10,61
80.	Jizzax shahri	6697	709	10,59
81.	Namangan tumani	3407	360	10,57
82.	Shirin shahri	701	73	10,41
83.	Olmaliq shahri	4731	492	10,40
84.	Xiva shahri	1875	194	10,35
85.	Xiva tumani	6548	666	10,17
86.	Chirchiq shahri	3616	365	10,09
87.	Termiz shahri	5500	552	10,04
88.	To'raqo'rg'on tumani	5501	552	10,03
89.	Baliqchi tumani	5900	591	10,02
90.	Yangiyer shahri	1910	191	10,00
91.	Pop tumani	5730	572	9,98
92.	Olmazor tumani	8076	806	9,98
93.	Koson tumani	9106	903	9,92
94.	Uychi tumani	5002	496	9,92
95.	Qarshi tumani	8815	863	9,79
96.	Toshloq tumani	4537	443	9,76
97.	Guliston shahri	4145	403	9,72
98.	G'uzor tumani	7691	738	9,60
99.	Uchtepa tumani	6803	648	9,53
100.	Bo'z tumani	2048	195	9,52
101.	Kattaqo'rg'on shahri	2095	198	9,45
102.	Nurobod tumani	4649	435	9,36
103.	Shayxontohur tumani	7252	674	9,29
104.	Guliston tumani	3460	319	9,22
105.	Jarqo'rg'on tumani	7651	703	9,19
106.	Bektemir tumani	1048	96	9,16
107.	Dehqonobod tumani	5216	477	9,14
108.	Namangan shahri	5222	476	9,12
109.	Baxmal tumani	8445	767	9,08
110.	Kasbi tumani	6847	621	9,07
111.	Bo'ka tumani	3915	353	9,02
112.	Qo'qon shahri	3633	327	9,00
113.	Mingbuloq tumani	3750	337	8,99
114.	Uchqo'rg'on tumani	5736	513	8,94
115.	G'allaorol tumani	8708	777	8,92
116.	Amudaryo tumani	7623	678	8,89
117.	Qamashi tumani	9303	827	8,89
118.	Muborak tumani	3409	303	8,89
119.	Zarbdor tumani	3542	312	8,81
120.	Yangiqo'rg'on tumani	6037	531	8,80
121.	Qumqo'rg'on tumani	8352	734	8,79
122.	Buloqboshi tumani	4386	383	8,73
123.	Boysun tumani	4216	368	8,73
124.	Shahrixon tumani	5797	504	8,69
125.	Qo'shrabot tumani	6634	575	8,67

Tumaningiz nechanchi o'rinda?

(Davomi. Boshi 6-betda.)

T/r	Tuman nomi	Abituriyentlar soni	Talabalikka tavsiya etilganlar soni	%
126.	Yakkabog' tumani	9967	859	8,62
127.	Kattaqo'rg'on tumani	6516	558	8,56
128.	Quvasoy shahri	3084	263	8,53
129.	Ishtixon tumani	8872	752	8,48
130.	Shahrisabz tumani	10027	848	8,46
131.	Ohangaron tumani	3934	332	8,44
132.	Angren shahri	5243	438	8,35
133.	Bandixon tumani	301	25	8,31
134.	Paxtaobod tumani	4771	395	8,28
135.	Pastdarg'om tumani	10516	868	8,25
136.	Termiz tumani	4599	378	8,22
137.	Payariq tumani	9096	747	8,21
138.	Bulung'ur tumani	7447	604	8,11
139.	Piskent tumani	3729	302	8,10
140.	Oqdaryo tumani	5062	409	8,08
141.	Shahrisabz shahri	1627	131	8,05
142.	Chiroqchi tumani	12034	968	8,04
143.	Ohangaron shahri	430	34	7,91
144.	Boyovut tumani	5001	391	7,82
145.	Beruniy tumani	4657	364	7,82
146.	Parkent tumani	6283	488	7,77
147.	Ulug'nor tumani	1732	134	7,74
148.	Mirishkor tumani	3237	248	7,66
149.	Bekobod shahri	2796	213	7,62
150.	Muzrabot tumani	4716	359	7,61
151.	Uzun tumani	4690	357	7,61
152.	Do'stlik tumani	2904	221	7,61
153.	Mirzaobod tumani	3264	248	7,60
154.	Marg'ilon shahri	3670	272	7,41
155.	Qo'rg'ontepa tumani	4529	335	7,40
156.	Qibray tumani	6376	469	7,36
157.	Oqoltin tumani	2136	157	7,35
158.	Zomin tumani	7571	550	7,26
159.	Angor tumani	4449	323	7,26
160.	Marhamat tumani	5039	365	7,24
161.	Xovos tumani	3003	216	7,19
162.	Yangiobod tumani	1591	114	7,17
163.	Sharof Rashidov tumani	8196	587	7,16
164.	Jomboy tumani	5042	361	7,16

T/r	Tuman nomi	Abituriyentlar soni	Talabalikka tavsiya etilganlar soni	%
165.	Jalaquduq tumani	5260	375	7,13
166.	Oltinko'l tumani	4651	331	7,12
167.	Andijon shahri	9453	668	7,07
168.	Sayxunobod tumani	3400	238	7,00
169.	Toyloq tumani	5441	369	6,78
170.	Mo'ynoq tumani	1092	74	6,78
171.	Sherobod tumani	6557	443	6,76
172.	Qiziriq tumani	6618	445	6,72
173.	Izboskan tumani	6003	400	6,66
174.	Sardoba tumani	2880	191	6,63
175.	Forish tumani	4190	276	6,59
176.	Bekobod tumani	6090	401	6,58
177.	Xo'jaobod tumani	3992	260	6,51
178.	Oltinsoy tumani	6437	418	6,49
179.	Sho'rchi tumani	8124	526	6,47
180.	Paxtakor tumani	3077	197	6,40
181.	Zafarobod tumani	2110	134	6,35
182.	Asaka shahri	1571	99	6,30
183.	Toshkent tumani	746	47	6,30
184.	Yangiyo'l shahri	469	29	6,18
185.	Yuqorichirchiq tumani	2973	182	6,12
186.	O'rtachirchiq tumani	5936	363	6,12
187.	Bo'stonliq tumani	4417	268	6,07
188.	Samarqand tumani	4260	257	6,03
189.	Sariosiyo tumani	5241	316	6,03
190.	Andijon tumani	6366	382	6,00
191.	Arnasoy tumani	1905	114	5,98
192.	Sirdaryo tumani	4019	240	5,97
193.	Denov tumani	9894	577	5,83
194.	Zangiota tumani	7273	405	5,57
195.	Urgut tumani	10245	570	5,56
196.	Xonobod shahri	805	44	5,47
197.	Chinoz tumani	3823	200	5,23
198.	Asaka tumani	5998	309	5,15
199.	Mirzacho'l tumani	1871	93	4,97
200.	Quyichirchiq tumani	2940	137	4,66
201.	Oqqo'rg'on tumani	3812	170	4,46
202.	Qorasuv shahri	429	19	4,43
203.	Yangiyo'l tumani	5418	235	4,34

Sinab ko'ring

“78 yoshga chiqdik nabiramiz ikkovlon”

Ish tajribamda ko'p guvoh bo'lganman: aksariyat o'quvchilar matnli masalalarni yechishga qiyinaladi. Ularning fanga qiziqishini susaytirmaslik uchun matnli masalalarni yechishning qiziqarli usullarini o'rgatishga harakat qilaman. Bunday masalalarni yechishni bilgan o'quvchining fikrlash doirasi kengayadi, bilimi oshadi.

O'quvchilar bilan ishlashda mashg'ulotni ko'pincha musobaqa tarzida olib boraman.

Masala:

— *Bobo, kenja nabirangiz Necha yoshga chiqdi hozir?*

— *Kenjam Nazir,*

Men qanchaga chiqqan bo'lsam,

Shuncha oylik boldi, bo'tam.

— *Siz qanchaga chiqdingiz?*

Qaytib-qaytib so'rar Javlon.

— *Yetmish sakkiz yoshga chiqdik, Nabiramiz ikkovlon.*

— *Voy, qizig'-a, xo'sh qanday?*

— *Mening yoshim unikiga qo'shganda....*

Kim topadi, Ro'zmat bobo

Qancha yoshga to'lganin?

Nabirasi Nazir esa

Necha oylik bo'lganin?

Bu masala ustida ishlashda o'quvchining badiiy matnni tushunish, uni ifodalari o'qish, matematik qobiliyatlari ham sinovdan o'tkaziladi. Tajribamda qo'llagan mana bu yechimni sizlarga ham tavsiya qilaman. Faraz qilaylik, bobo hozir x yoshda bo'lsin, u holda masala shartiga asosan nabirasi x oylik bo'ladi. x oyni

yilga o'tkazsak, $\frac{x}{12}$ yil bo'ladi. Quyidagi tenglamani hosil qilamiz: $x + \frac{x}{12} = 78$.

Bu tenglamani yechib, Ro'zmat bobo 72 yoshda, nabirasi 6 yoshda (72 oylik) ekanligini topamiz. Darslarni bu kabi o'yin tarzida olib borish o'quvchilarning fanga qiziqishini yanada oshiradi.

Qolaversa, 7–8-sinf o'quvchilari bilan ko'proq PISA masalalaridan yechishga harakat qilaman.

Masalan, ikki xil kattalikdagi doira shaklidagi patir nonlar sotilmoqda. Ulardan kichigining diametri 30 sm bo'lib, narxi 3 pul birligi ekan, kattasining diametri va narxi mos ravishda 40 sm va 4 pul birligiga teng. Qaysi non arzonroq? Javobingizni asoslab bering!

Men ushbu masalaning yechimini quyidagicha asosladim: dastlab, patir nonlarning yuzlarini hisoblaymiz (nonlarning

qalinligini taxminan bir xil deb olamiz). Doiraning yuzini topish formulasidan foydalanamiz. Birinchi nonning yuzi S_1 bilan, ikkinchi nonning yuzini S_2 bilan belgilaymiz.

$$S_1 = \pi r^2 = 225\pi \approx 706,5(\text{sm}^2)$$

$$S_2 = \pi r^2 = 400\pi \approx 1256(\text{sm}^2)$$

Birinchi nonning yuza birligining

narxini topamiz: $\frac{3}{706,5} \approx 0,004$ Xuddi shunday ikkinchi nonning narxi $\frac{4}{1256} \approx 0,003$

ekanligini topamiz. Demak, ikkinchi patir non birinchisiga qaraganda arzonroq ekan. Bu masala yordamida real obyektlarni geometrik figuralar modellari bilan bog'lay olish, yassi va fazoviy figuralarni tasavvur qilish, tanib olish va nomlay olish, fazoviy figuralarni ularning tekislikdagi ko'rinishlari bilan bog'lay olish, yuz formulalaridan foydalaniib hisoblay olish bilan birga borliqdagi hodisa va jarayonlarni matematik tilda ifodalash va tahlil qilish kompetensiyalari baholanadi.

Dildora XALILOVA,
Urgut tumanidagi
81-maktab o'qituvchisi

“Istasang, ey gul, Navoiydek xush ilhom bulbule...”



“Gar Navoiy so‘z uzatti...”

Har safar Navoiy qo‘lga olganimda o‘zim uchun yangi bir jihatini kashf etgandek bo‘laman. Dengiz tubidan gavhar topgan g‘avvosdek o‘zimdagi yo‘q quvonaman. Shu

gavharlardan biri haqida so‘z yuritmoqchiman. Bu — **chekmoq** so‘zi bo‘ladi. Bu so‘z **tugamoq, ado bo‘lmoq** ma‘nolarida qo‘llaniladi. Misol uchun, barchamiz yaxshi biladigan g‘azaldan bir parchani misol qilib keltirish kifoya bo‘lsa kerak:

*Lahza-lahza chiqtim-u chektim yo‘lida intizor,
Keldi jon og‘zim‘a-yu ul sho‘xi badxo‘ kelmedi.*

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da davomli narsa yoki hodisalarning eng so‘nggi chegarasi, oxiri, nihoyasi, poyoni “chek” deyiladi, deb izoh beriladi. Misol uchun: *xayolning cheki yo‘q*. Farg‘ona viloyatining Marg‘ilon, Qo‘shqepa, Toshloq, Oltiriq tumanlarida dala uchastka chek deyiladi. Xulosa qilib aytganda, mumtoz adabiyotimizdagi *fig‘on chekmoq, jon chekmoq, alam chekmoq* so‘zlari dard-u g‘amning eng yuqori darajasini bildiradi. Ya‘ni yig‘layverib, qayg‘uraverib hatto tanamda jon qolmadi degan ma‘noni anglatadi. Navoiyning quyidagi bayti buning yorqin dalili bo‘la oladi: *Ko‘rumur otashin la‘ling dilafro‘z,
Magar ollida chektim ohi jonso‘z.*

Navoiy asarlarini o‘qish va uqish har doim katta ruhiy va aqliy tayyorgarlik talab qiladi. Zero, bu asarlar ko‘ngil mamlakatiga olib boruvchi sehrlari xarita kabitdir. Navoiy o‘zi aytganidek:

*Gar Navoiy so‘z uzatti faqrin ermas demang,
Bo‘limg‘uncha hukm shahdin qayda bu jur‘at anga?!*

Davlatjon KARIMOV,
Erkin Vohidov nomidagi
ijod maktabi o‘qituvchisi

“Nafing agar xalqqa beshakdurur...”

Alisher Navoiy insonni shu qadar ulug‘laydiki, uning ko‘nglini olishni Makkatulloga borib ziyorat qilishdan ham afzal deb hisoblaydi. Shoirning bir g‘azali to‘g‘ridan to‘g‘ri quyidagi misralar bilan boshlanishi bejiz emas:


Shoir ko‘ngil atalmish mo‘jaz olamni muqaddaslik bobida Ka‘baga tenglashtiradi. O‘zligini axtarib, Haqqa yetishish uchun Ka‘baga sig‘inayotgan insonga o‘z siyratini maskan tutgan ko‘nglini unutib qo‘ymaslikni, unga Ka‘badek sig‘inmoq darkorligini eslatib o‘tadi. Zero, Oloh nazargohi bo‘lmish ko‘ngil insonning o‘zligi, kamolot cho‘qqisi yashiringan yagona maskandir:

*Qadri yo‘q andoqki, ko‘ngul
Ka‘basi.
Odamlar bir-birlariga qanchalik yaxshilik qilsalar, el-yurtga qancha ko‘p foyda keltirishni ko‘zlab yashasalar, mehnat qilsalar, bu sa‘y-harakatidan o‘ziga o‘n chandon ko‘proq naf keladi.
Nafing agar xalqqa
beshakdurur.
Bilki, bu naf o‘zungga
ko‘prakdurur.*

Oygul YOMATOVA,
Besharki tumanidagi
11-maktab o‘qituvchisi

“Shukrungg‘a tilimni qoyil ayla...”

Alisher Navoiyning “*Layli va Majnun*” dostoni “Xamsa” dostonlari orasida o‘ziga xos ritmga ega. Ushbu dostonning go‘zal ritmiga alohida e‘tibor qaratgan N.I.Konrad “*Sharq va G‘arb*” kitobida bu dostonning ritmini ajoyib simfonik musiqaga o‘xshatgan edi. Dostonning muqaddima boblaridayoq Olohga murojaati, uning eng go‘zal va ulug‘ sifatlarini tarannum etishida o‘ziga xos ohangning yaratilganligidir. Ilk boblar sokin o‘qiladi.




Navoiy dostonning muqaddima qismidayoq asosiy qo‘fiya turlarining barchasidan samarali foydalanadi. Shu bilan birgalikda muqayyad qo‘fiya turi ham bundan mustasno emas. U qaydli qo‘fiya deb ham ataladi. Ushbu qo‘fiya turida o‘zak tarkibida joylashgan qisqa unidan so‘ng qator undosh joylashadi. Muqayyad qo‘fiya turiga mansub quyidagi baytni misol sifatida ko‘rishimiz mumkin:

*Boshdinki qadam qilibdurur melr,
Istab seni bo‘ladi za‘faron chehr.*

Dostonning hamd va na‘t qismlarida qo‘fiya turlaridan eng kam qo‘llaniladigan muassas qo‘fiya turiga ham duch kelamiz: *Shukrungg‘a tilimni qoyil ayla,
Sajdang‘a boshimni moyil ayla.* Ushbu qo‘fiya turida cho‘ziq “o” unlisi bilan raviy o‘rtasida bir undosh va undan keyin bir unli keladi. Cho‘ziq “o” unlisi ta‘sis deb, undan keyingi undosh *daxil* deb, raviy oldidagi qisqa unli esa *ishbo‘* deb ataladi. Yuqoridagi baytda “o” harfi — ta‘sis, “y” undoshi — *daxil*, “i” unlisi — *ishbo‘* hamda “l” harfi — raviy hisoblanadi.

Navoiy bir misra yozib, unga hamohang so‘zni qidirmaydi. Negaki, baytlar o‘z-o‘zidan ikkinchi misrani hosil qiladi. Ya‘ni doston va uning boblari mazmunli qo‘fiyaga emas, balki qo‘fiya ularga bo‘ysunadi. Qo‘fiya turlari ayni bir ketma-ketlikda emas, balki mazmunga hamohang joylashadi. Nigoraxon SHOKIROVA, Qo‘rg‘ontepa tumanidagi 18-IDUM o‘qituvchisi

Navoiyning o‘rganish kaliti



(Davomi. Boshi 1-betda.)

8-sinfda Navoiy qalam surgan ana shu uch kichik lirik janring shakli xususiyatlarini yaxshi o‘rganmay turib maqsadga erishib bo‘lmaydi. Shuning uchun darslikda bu uch janring shakli xususiyatlari haqida kerakli ma‘lumotlar berilgan. Biroq endi o‘qituvchi o‘quvchilarni oson o‘zlashtirish yo‘llarini izlashi kerak.

Avvalo, ana shu janrlar o‘rtasidagi o‘xshashliklarni topish va uni o‘quvchilar ong-tafakkuriga joylash kerak bo‘ladi. Buni darsda uchala janrga tegishli asarlar o‘tib bo‘linganidan keyin takrorlash sifatida amalga oshirish mumkin.

Avval farqli tarafdagi sanab o‘tamiz. Ruboiy ham, tuyuq ham — to‘rtgina satrdan tashkil topadi. Ruboiyda ham, tuyuqda ham *aaaa*, ya‘ni hamma satrlar o‘zaro qo‘fiyalangan yoki *aaba*, ya‘ni birinchi, ikkinchi va to‘rtinchi satrlariga o‘zaro qo‘fiyalangan bo‘lishi mumkin. Ruboiyning ham, tuyuqning ham o‘z muayyan vazni bo‘ladi, ya‘ni o‘sha vaznga tushmagan asar bu janr namunasi hisoblanmaydi.

Keyin farqlar haqida so‘z boradi. Ruboiy aruzdagi hazaj bahrining axram va axrab yo‘nalishlaridagi 12 tadan jami 24 vaznda bitiladi. Hazajning asosiy rukni esa — “mafoilyun”. Bunda rukn bir qisqa va uch cho‘ziq hijodan tashkil topadi. Tuyuqda esa bunday imkoniyat yo‘q. U ramal bahrida, ramalning ham faqat va faqat ramali musaddasi mahzur (yoki maqsur) vaznidagina bitiladi. Ramalning asosiy rukni — “foilotun”. Bunda rukn bir cho‘ziq, bir qisqa va yana ikki cho‘ziq hijodan tashkil topadi. Yana bir farq shundan iboratki, ruboiy qo‘fiyalarida

tajnis, ya‘ni shakldosh (omonim) so‘zlar ishlatilishi shart emas. Lekin ishlatilsa ham, bo‘laveradi. Ammo tuyuqda qo‘fiyaga olingan so‘zlar tajnisli bo‘lishi — shart. Bu shart keyinchalik tuyuq vazni uchun muhim bo‘lib qolgan.

Fardning esa ruboiy va tuyuqdan farqli tomonlari ko‘p. Birinchidan, fard ikki misradan-gina tashkil topadi, to‘rt satrdan emas. Ikkinchidan, ayrim fardlar qo‘fiyal bo‘ladi, ayrimlari esa qo‘fiyasiz ham yozilaveradi. Fardning vazni ham har xil bo‘laverishi mumkin.

O‘quvchiga ana shu o‘xshash va farqli jihatlarni yaxshilab o‘rgatilmasa, ular bu asarlar mohiyatiga yeta olmaydi.

Bunday o‘ta nozik va muhim jihatlarga esa o‘qituvchi oliy ta‘lim muassasasida olgan, o‘z ustida ishlash natijasida to‘plagan bilimlari, shuningdek, darslikni puxta-pishiq o‘qib-o‘rganishi evaziga erishadi.

Ko‘pincha o‘quvchilar darslikni puxta o‘zlashtirmagani uchun ularning bilim saviyasi ko‘tarilmaydi. Shuning uchun o‘quvchilarda maktab darsliklaridagi bilimlarni o‘zlashtirish ko‘nikmalarini hosil qilish va kuchaytirish — juda-juda zarur. Bu Alisher Navoiy ijodini o‘rganishda ham nihoyatda qo‘l keladi.

Dildora G‘AFFOROVA,
Buxoro shahridagi
28-maktab o‘qituvchisi

“Ajab saodat erur chiqsa yaxshilik bila ot...”

Amir Alisher Navoiy o‘z davrida o‘nlab va yuzlab maktab, kutubxona, masjid, hammom va bozorlar qurilishiga bosh-qosh bo‘lgan. Alisher Navoiy vafot etgach, uning maqbarasi Sulton Husayn Boyqoro davrida qurilgan. Bu maqbara Hirot tashqarisidagi Musallo markazida, Injil arig‘ining janubiy qirg‘og‘i yaqinida joylashgan gumbazli oddiy bino bo‘lib, uni Gavharshodbegim maqbarasiga qiyoslab hirotlik savdogar hoji G‘ulom Haydar Muxtorzoda qurdirgan. Tarhining tashqarisi 10x10 m, ichkarisi 6x6 m. Devor qalinligi 1 m. An‘anaviy mayda chorsi g‘isht (18x18x5 sm) ganchhok loyida terilgan. Ichki bezagida ganchkori naqsh va iroqisimon bezak qo‘llangan. Tarzlari ravoqli, tobadonli, janubiy ravoq — ochiq eshik vazifasini o‘tardi. Gumbaz osti gardishining 4 tomonida darcha bor. Maqbara bezaksiz, xona o‘rtasida kichik dahma qora marmar (182x41—35,6x4 sm) bilan qoplangan, unda nasta‘liq xatida “Hazrat Amir Kabir Nizomiddin Alisher Navoiy Hiraviy. Tavalludi — 844, vafoti — 906 hijriy, donishparvar vazir” degan so‘zlar bitilgan. Mazkur qabrtosh Kobuldan keltirib o‘rnatilgan.

Navoiyning maqbarasi toshiga Qur‘oni karim oyatlarini va Navoiy qalamiga mansub: *“Bu gulshan ichraki yo‘qtur baqo guliga sabot,
Ajab saodat erur chiqsa yaxshilik bila ot”.*


Sibg‘atulloh JAVHARIY,
TerDU magistranti



(Forscha: “*Dar in chaman shukufau gulro sabot nest, Gar nomi nek bimonand az inson saodat ast*”) misralari o‘zbek va fors tillarida o‘yib yozilgan. Yangi qabrtosh O‘zbekistonning Navoiy viloyati Nurota tumani G‘ozg‘on qishlog‘ida yashovchi usta sangtarosh Tohirjon Rahimov tomonidan, maqbara eshigi esa toshkentlik yog‘och ustasi Alisherbek tomonidan tayyorlandi. Qabr toshining og‘irligi 4 tonna bo‘lib, uni 9 bo‘lak marmar tashkil etadi.

Kelajakda Alisher Navoiy maqbarasini va uning atrofidagi masjid, maqbaralarni qayta qurish tajribali me‘morlar tomonidan loyihalashtirilmoqda.

“Qatrag‘a chun tarbiyat etti sadaf...”



Navoiy qarashlariga ko‘ra, o‘z kuchi va aql-u zakovatiga qattiq ishongan insoning turli

qiyinchiliklar, sinovlarga bardosh bera oladi. Bobomiz “Hayrat ul-abror” dostonida komil inson obrazini yaratib, uning qiyofasida ma‘naviy-axloqiy sifatlarini ulug‘lagan. “Bolaga yaxshi ot qo‘yish kerak, toki uni ot bilan chaqirganlarida uyulib qolmasin”, — deb yozadi Navoiy:

*Ulcha erur tiftg‘a shoyista ish,
Bilki, kichiklikda erur parvarish.
Qatrag‘a chun tarbiyat etti sadaf,
El boshig‘a chiqquncha
etti sharaf.
Birisi qo‘ymoqlik erur yaxshi ot,
Kim desalar yetmagay
andin uyot.*

Shahlo MURODOVA,
Navoiy shahridagi
11-AFCHO‘IUM o‘qituvchisi

Yo‘qlov

*Assalomu alaykum,
hazrat Navoiy,
Millatning chirog‘i,
nazmi ilohiy.
Yillar to‘foniga
guvohdir moziy,
Faqat Haq deganlar
qolurlar boqiy.*

*Yaxshi kishilarni
hayratga solib,
“Nafis majlislar”da
bo‘ladi o‘rmingiz.
Bahromni mahv etib,
Iskandar bo‘lib,
Adolat tug‘ini baland tutdingiz.*

*“Nazm ul-javohir”dan
siz izlab ma‘no,
Javohir terdingiz
nazm bog‘idan.
Axir, sabab bo‘lib sizdagi zako
Turkiy til yuksaldi
nazm tog‘ida.*

*Fano vodiysida sarson
kezganlar,
“Lison ut-tayr”dan
halovat topsin.
O‘zligin unutib, tilin buzganlar,
Bolasin turkiy so‘z ila
uyg‘otsin.
Assalomu alaykum,
hazrat Navoiy...*

Nargiza ERGASHEVA,
Mirzo Ulug‘bek tumanidagi
248-maktab o‘qituvchisi

Sahifani Suhrob ZIYO
tayyorladi.

“Qololmas jahon ichra mangu kishi...”

Ulug‘ shoirning asarlarini o‘qir ekanmiz, bu dunyoda hech bir narsa umrbog‘iy emasligi, insonning hayoti davomida qilgan yaxshiligi, ezgu ishlari bilan bezagan yaxshi nomigina mangu va abadiy qolishi quyidagi misralar orqali ifodalanganini bilib olamiz: *“Qololmas jahon ichra mangu kishi,
Faqat qo‘lg‘usi yaxshi nom-u ishi”.* Sabr-qanoat insonning orzu-umidlarini ro‘yobga chiqaradigan ne‘mat ekanini uqtirmoqda shoir. Bu — insonlarni poklik, sabr, matonat yo‘liga eltuvchi, ta‘magirlik, tubanlik, razillik va har qanday yomonlik botqog‘idan farog‘at, izzat va hurmat darajasiga eltuvchi yo‘l. Shoir bu misra orqali ikki holatni mohirlik bilan muqobil qo‘yadi. Tabiiyki, mol-dunyoga bo‘lgan hirs oqibati kishini xor-zor qiladi. “Mahbul ul-qulub” da o‘qiyamiz: *“Xorlig‘lar boshi tama‘bilgil,
Doimo “azza man qana”‘ bilgil”.* Shoir ushbu satrlar orqali tamagirlik oqibatida inson xorliklarga duchor bo‘lishini, qanoat qilgan esa doimo elda aziz bo‘lishini ta‘kidlaydi. Inson qalbining



quvonch-u qayg‘usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan kam topiladi.

Feruza QURBONOVA,
Qarshi shahridagi
22-maktab o‘qituvchisi

So'z tarixi — o'z tariximiz

Navoiy asarlarini to'g'ri o'qiymizmi?

Navoiy asarlarini bolalikdan o'qiymiz. Harqalay, meni o'zbek tili bilan tanishtirgan, o'zbek tiliga mehr uyg'otgan muallif Navoiy bo'ladi. Beshinchi sinfdan Navoiy she'rlari bilan birinchi marta tanishib, hech narsa tushunmaganman. Shunga qaramay, bu she'rlarning o'ziga xosligi, jarangdorligi va tushunarsizligi meni o'ziga rom etgan. Shundan so'ng bu tilni tushunishga, o'rganishga harakatni boshlaganman.



Bugungi kunda chig'atoy tilini (ya'ni Navoiy tilini) juda yaxshi bilaman desam, maqtanchoqlik bo'ladi, lekin mubolag'a emas. Navoiyni ko'p o'qiganman, hozir ham ko'p o'qib turaman, endi uni ancha yaxshi tushunaman.

Chig'atoy tili o'zbek tilining eski varianti sifatida tan olinadi, uning yodgorliklari O'zbekistonda o'rganiladi, chop etiladi. Ko'plar bu kitoblarning tili tushunarsiz deb hisoblaydi. Lekin aslida tushunarli bo'lishi uchun matn bugungi tilga moslashtirilganini ko'pchilik bilmasa kerak. Navoiy tili biz darsliklarda o'qib o'rgangandan farq qilgan ekan, u qanday shaklda bo'lgan? Uning talaffuzini tiklay olamizmi?

Bu masalaga oydinlik kiritish uchun ikki olimning tadqiqotidan foydalanamiz. Birinchisi — Borovkovning "Алишер Навоий как основоположник узбекского литературного языка" maqolasi. Ushbu tadqiqotda mashhur olim Navoiy asarlarining o'zidagi guvohliliklarni o'rganib, uning davridagi talaffuzni aniqlashtirishga harakat qiladi. Xususan, "Muhokamat ul-lug'atayn"dagi ma'lumot asosida u Navoiy tilini bugungi Farg'ona vodiysi sharqidagi shevalarga yaqinlashtiradi.

Ikkinchi tadqiqot — Shcherbakning "Строй староузбекского языка" kitobi. Unda tadqiqotchi Navoiy va uning zamondoshlari qoldirgan manbalar asosida chig'atoy tili fonetikasi va grammatikasini tiklashga harakat qiladi.

Bu ikki tadqiqotchiga asoslanib, sodda tilda tushuntiradigan bo'lsam, Navoiy tilining bugungidan yaqqol farq qiladigan quyidagi ikki jihati bo'lgan:

— "o" tovushi bo'lmagan — bu tovush o'zi fors tilida XVII–XVIII asrlarda cho'ziq a'dan shakllanib, fors tili ta'siri ostidagi boshqa tillarga tarqalgan (o'zbek, uyg'ur, ozarbojjon, yag'nob, hindiy-urdu va hokazo). Navoiy davrida u tovush mav-

jud bo'lishi mumkin emasdi. Shunday ekan, Navoiyning mashhur g'azalini "Kecha kelgumdur debon" emas, "Kecha kelgumdur deban" deb o'qish kerak. Navoiyning taxallusi ham "Navāi" edi;

— singarmonizm hodisasi bo'lgan, ya'ni bitta so'zda yo faqat old qator (qattiq), yo faqat orqa qator (yumshoq) unlilar ishlatilgan. Unlilar qattiq va yumshoq variantlarda qo'llanilgan. Chig'atoy tilining bugungi ikki davomchisi — o'zbek va uyg'ur tillari singarmonizmi qisman saqlagan, o'zbek adabiy tilidan esa 1930-yillar oxirida singarmonizm umuman olib tashlangan.

Bugungi nashrlarda chig'atoy tilining asosan unli tovush tarkibi "zamonaviylashtirib" beriladi, undoshlarga uncha tegilmaydi. "Ketur" "keltir"ga, "erdi" "edi"ga aylantirib berilmaydi. Buning aniq sababini bilmayman. Lekin aynan shu holat tufayli tilshunoslikdan bexabar o'zbek o'quvchisi-da bir chalkashlik yuzaga keladi.

Oldinroq aytganimdek, singarmonizm hodisasida bitta so'zda faqat bitta qator unlisi ishlatiladi. Lekin ba'zi undoshlar ham borki, unlilarning yumshoq-qattiqligiga qarab almashadi. Masalan, "g'" va "q'" uvulyar (chuqur til orqa) tovushlari faqat qattiq unlilar bilan, "g'" va "k'" faqat yumshoq unlilar bilan keladi. Bu hodisa tufayli chig'atoy tilida qo'shimchalar ikki xil — yumshoq va qattiq shaklga ega. Masalan, ādam ("odam") so'ziga jo'nalish kelishigi ko'rsatkichi qattiq — +g'a shaklida qo'shilgan: ādamga. Lekin kishi ("kishi", "odam", "erkak") so'zidagi unlilar yumshoq, shu bois ularga yumshoq +g'a shakli qo'shilgan: kishig'a.

Bu qonuniyat doim ham kitobxoniga tushuntirilmaydi, bugungi alifboda barcha unlilar neytral bo'lgani bois neytral shaklga keltiriladi. Lekin "g'", "q'", "g'", "k'" harflari bor — ular o'tmida saqlanib qoladi. Singarmonizmdan bexabar o'zbek kitobxoniga "qa-

dimda +ga qo'shimchasi faqat +g'a shaklida ishlatilgan ekan" deb o'ylaydi. Unlilar singarmonizmi yozuvda aks etmagach, eski matnda bir o'rinda +g'a, bir o'rinda +ga kelishi hech qanday tartibga ega emasday tuyuladi.

Bu xato shu qadar keng tarqalganki, TVda, kinoda ham uni tez-tez uchratishimiz mumkin. Chig'atoy tilining bugungi o'zbekka "begona" eng yaqqol ko'zga tashlanadigan jihati bo'lmish shu qo'shimcha kinolarda, seriallarda, reklamada eski tilni imitatsiya qilish uchun o'rinni o'rinsiz ishlatilaveradi: "odamga" ham deb yuborishadi, "kishig'a" deb ham. Bunday talaffuzni eshitgan Navoiyning tepa sochi tikka bo'lardi.

Fikrimcha, Navoiy merosidan g'urur tuyadigan, o'zini uning vorisi deb hisoblaydigan O'zbekistonga bu holat yarashmaydi. Shunchaki Navoiy asarlarini bugungi tilga moslashtirib, darsliklarga kiritish yetarli emas. Chig'atoy tili asoslari ham o'qitilishi kerak deb o'ylayman. Unda, bugungi o'zbek tilidagidan farqli ravishda, oltita emas, sakkizta unli bo'lgani, davom fe'li bo'lmagani, "erdi" fe'lidagi "r" allaqachon tushib qolgan (TVdagi tarixiy til imitatsiyachilari "erdi" deb ham ko'p asabni buzadi) va bu tilning boshqa xususiyatlari o'rgatilishi lozim. Shunda o'zbeklarda bobo til haqida muayyan tasavvur hosil bo'ladi. Hozir +g'a qo'shimchasini, "erdi" fe'lini aniq tartibga ega bo'lmagan arxaizm deb o'ylayotganlar ular aslida muayyan qonuniyatlarga asosan ishlatilishini tushunib yetadi.

Eh, zamonaviy o'zbek tili savodxonligi yomon ahvoldaligida eski o'zbek tili savodxonligi haqida gapirishga shoshildim shekilli. Lekin nima bo'lganda ham, o'z tili tarixini, tarixiy shaklini yaxshi biladigan avlod tarbiyalanishini juda xohlayman.

P.S.: Aytganday, o'zbek tili tarixi o'rgatilsa, kinochilar, televideniyechilar va hatto yozuvchilar yo'l qo'yadigan yana bir xato yo'q bo'lardi: kinoda, kitobda voqealar X asrda bo'ladimi, XIX asrda bo'ladimi, hamma mana shu Navoiy tili deb tasavvur qilinadigan tilda gapiradi. Yozuvchi va kinochilarimiz Beruniyni ham, Qodiriyni ham "sizg'a-bizg'a"latadi. X asrdagi til XIII asrdagi tildan ham kuchli farq qilgan. XV, XVII, XIX asr tillari ham bir-biridan jiddiy farqlarga ega.

2.P.S.: Navoiy tilini bizga tushunarsiz qiladigan asosiy narsa haqida ham ikki og'iz. Navoiy forscha va fors tilidagi arabcha so'zlarni juda ko'p ishlatgan. Buning o'ziga yarasha sabablari bor. Lekin bir narsani unutmaslik kerak: u so'zlarning aksariyati so'zlashuv tilida ishlatilmagan. Bunga Navoiyning o'zi ham ko'p ishora qiladi, xalq tili haqida yozganda. Aslida bugun ham o'zbek adabiy tilida ishlatiladigan forscha so'zlarning asosiy qismi xalq tilida qo'llanmaydi. Buni e'tiborga olish lozim. Sof holdagi XV asr tili bugungi tilimizga o'ylaganimizdan ancha yaqin.

Eldor ASANOV

SO'Z TARKIBI O'QUV LUG'ATI

(Davomi. Boshi o'tgan sonda).

B

be/baho/lik
be/bahra/lik
be/bosh/lik
be/vaj
bevalik
be/vasiqa
be/vatan
be/vafo/lik
be/vaqt/lik
begona/lash/moq
begona/lik
begona/sira/moq
be/gumon/lik
be/gunoh/lik
be/davo/lik
beda/zor
bedana/boz/lik
be/darak
be/darvoza
be/darmon/lik
beda/furush/lik
beda/chilik
bedod/lik
bedor/lik
bejama/dor
beza/k/dor
beza/k/la/moq
beza/k/li
bezbet/lash/moq
be/ziyon
bezovta/lan/moq
bezovta/lik
be/or/lik
be/ibo
be/idrok
be/ijozat
be/iz
be/illat
be/iltifot
be/imon
be/imtiyoz
be/intizom
be/ixtiyor
be/ish
be/ishkal
be/ishtiboh
be/iqbol
bekik/lik
bekin/machoch
bekor/chi/lik
be/lazzat
belgi/la/moq
belgi/lo/vchi (belgi/la/vchi)
belgi/siz
bel/lash/moq
bemador/lik
bemaza/garchilik
be/maslahat
be/ma'ni/garchilik
belik
be/mubolag'a
be/nomus/lik
be/nuqson/lik
be/omon/lik
be/or/lik
be/orom
be/ot
be/parvo/lik

(Davomi bor.)

Tuzuvchilar:

Bextiyor MENGLIYEV,
Bashorat BAHRIIDINOVA.

Ona tilidan testlar tahlili

O'tgan 2019-yil yangiliklarga boy bo'ldi. Davlat test markazi tomonidan muhim ishlar qilindi. Jumladan, markaz so'nggi o'n besh yillikda ilk bor test topshiriqlari to'plamini nashr etdi.

Mazkur to'plam O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga 2019/2020-o'quv yili uchun kirish test sinovlarida foydalanilgan test topshiriqlarini o'zida mujassam etgan.

Test topshiriladigan fanlar qatori ona tili va adabiyot bo'yicha test topshiriqlari to'plami ham o'qituvchilar, abituriyentlar uchun munosib tuhfa-

ga aylandi. Unda ona tilidan — 510 ta, adabiyot fanidan esa 375 ta test topshiriqlari o'rin olgan.

O'qituvchilar, abituriyentlarga qulaylik yaratish maqsadida "Ma'rifat" gazetasi mazkur test topshiriqlari to'plamining javoblari, shuningdek, ayrim topshiriqlarning yechimlarini e'tiboringizga havola etishni reja qilgan.

Mazkur sonda ushbu to'plamning "Til haqida umumiy ma'lumot. Fonetika" sarlavhasi ostida berilgan 24 ta test javoblari hamda ayrim yechimlar taqdim etilmoqda.

1. O'g'lim, sen uzumini yegin-u, bog'ini surishtirma.

Ushbu gapda tarkibidagi barcha undoshlari jarangli til undoshlariga mansub bo'lgan so'z qanday sintaktik vazifa bajaragan?

- A) kesim B) undalma
C) ega D) to'ldiruvchi

JAVOB. Amaldagi 5-sinf "Ona tili" darsligida qayd etilganidek, til tovushlariga t, d, s, z, ch, j, dj, sh, l, r, n, y, g, k, ng, q, g', x undoshlari kiradi (Bu o'rinda darslik mualliflari jo'ja so'zidagi undosh tovushni ifodalash uchun dj birikmasidan, jurnal so'zining birinchi undosh tovushini akslantirish uchun esa j harfidan foydalanishgan).

Ulardan 11 tasi — **d, z, j, dj, l, r, n, y, g, ng, g'** jarangli til undoshlari hisoblanadi (qolgan yettitasi — jarangsiz til undoshlari). Endi so'zlardagi undoshlarni ajratib chiqamiz: 1) g', l, m; 2) s, n; 3) z, m, n; 4) y, g, n; 5) b, g', n; 6) s, r, sh, t, r, m.

Demak, faqat bitta so'z — **yegin** so'zidagi barcha undoshlar (y, g, n) jarangli til undoshlari hisoblanadi. 1-, 3-, 5-so'zlarda ham faqat jarangli undoshlar ishtirok etgan bo'lsa-da, ularda lab undoshlari (m, b) ham qatnashgan. Bizga esa faqat jarangli TIL undoshlari qatnashgan so'z kerak.

Zarur so'z aniqlangach, endi uning qanday sintaktik vazifada kelganini topishimiz lozim. Ushbu gapda "yegin" so'zi fe'l kesim vazifasini bajarib kelgani ayon. Demak, to'g'ri javob — A.

2. Qaysi gapdagi ega vazifasidagi so'z tarkibida ishtirok etgan undoshlarning barchasi jarangli til undoshlari sanaladi?

- A) Ilm olish oson ish emas, unga har kim chidayvermaydi.
B) Javohir yo'lda adashib qolgan bir cholni ko'rib qoldi.
C) Ustoz ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar.
D) Shunda botir o'g'lonlar yurt hiyomayaga otlanibdilar.

JAVOB. Dastavval, har bir gapdagi egalarni va ulardagi undoshlarni aniqlab olamiz. A variantda ikkita ega mavjud: "ilm olish" (l, m, sh) va "har kim" (h, r, k, m). B variantda — "Javohir" (j, v, h, r), C variantda — "shogird" (sh, g, r, d), D variantda esa "o'g'lonlar" (g', l, n, r) so'zlari ega vazifasini bajarib kelgan.

Yuqoridagi savolda 11 ta jarangli til undoshlarini sanab o'tgan edik. Faqatgina D variantda berilgan gapning egasida

ishtirok etgan undoshlarning barchasi (g', l, n, r) jarangli til undoshlari hisoblanadi. Shunday ekan, to'g'ri javob — D.

3. Quyida berilganlardan tarkibidagi barcha undoshlari jarangli til undoshlariga mansub bo'lgan yasama so'zlarni aniqlang.

- 1) yolg'izlik; 2) teshik; 3) guldor; 4) yozgi; 5) jigarrang; 6) diyor.
A) 1, 3, 4, 5 B) 1, 2, 3, 6
C) 3, 4, 5 D) 4, 5, 6

JAVOB. Avvalo, har bir so'zdagi undosh tovushlarni ajratib olamiz: 1) y, l, g', z, k; 2) t, sh, k; 3) g, l, d, r; 4) y, z, g; 5) j, g, r, ng; 6) d, y, r. Ko'rinib turibdiki, 1-da (k) va 2-da (t, sh, k) jarangsiz undoshlar qatnashgan. Undagi 3) guldor, 4) yozgi, 5) jigarrang, 6) diyor so'zlari esa savolning birinchi talabiga javob beradi.

Savolning ikkinchi qismida ular orasidan yasamalarini tanlab olish lozimligi aytilgan. Yuqoridagi to'rt so'zdan uchtasi — gul+dor, yoz+gi, jigarrang yasama so'zlar hisoblanadi. Faqatgina diyor so'zi tub. Demak, to'g'ri javob — C.

9. Odobli, bilimdon, aqlli, mehnatsevar va iymon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning katta boyligidir.

Ushbu gapdagi ot yasovchi qo'shimchalar tarkibida nechta til oldi jarangli undosh ishtirok etgan?

- A) 3 ta B) 2 ta
C) 6 ta D) 1 ta

JAVOB. Ishni birinchi navbatda qo'shimcha qo'shish yo'li bilan yasalgan so'zlarni aniqlashdan boshlaymiz: odob+li, bil+im+don, aql+li, iymon-e'tiqod+li, boy+lik. Bu so'zlardan ikkitasida ot yasovchi qo'shimcha qatnashgan — bil+im= bilim, boy+lik=boylik (-li va -don — sifat yasovchi qo'shimchalar hisoblanadi). Ushbu ikki so'zdagi undoshlar — **m, l, k** (boylik so'ziga egalik qo'shimchasi -i qo'shilishi natijasida so'zda tovush almashishi ro'y bergan).

Endi ulardan qaysilari jarangli til oldi undoshi ekanligini topishimiz kerak. Amaldagi 5-sinf "Ona tili" darsligining 125-betida til oldi undoshlari — **t, l, s, z, d, sh, ch, j, dj, n, r** ekanligi qayd etilgan. Ulardan 7 tasi — **l, z, d, j, dj, n, r** til oldi jarangli undoshlari hisoblanadi. Shuni ayonki, bu qatoridagi undoshlarga faqat l mos keladi, **m, k** (yoki **g**) ham jarangli til oldi undoshi emas. Demak, to'g'ri javob — D.

12. Quyida berilgan qaysi gaplarda shakl yasovchi qo'shimcha ta'sirida

tovush o'zgarishi bilan yozilgan so'z yasovchi qo'shimcha qatnashgan?

- 1) Sayroqi qushlar makoni bo'lgan bu bog' endi xunuk manzara kasb etgan edi;
2) Unsin xola ko'rpaning chiroyli qavig'iga qarab o'z ishidan mamnun bo'lardi;
3) U mayda tishli taroq bilan sochini avaylab taradi;
4) U do'stiga qaynoq tilaklarini izhor qilmoqchi edi;
5) Nursultonning quvnoqligi atrof-dagilarning ham kayfiyatini ko'tardi.
A) 2, 5 B) 1, 3, 5
C) 2, 3, 4 D) 2, 4

JAVOB. Birinchi galda gaplardagi tovush o'zgarishi hodisasiga uchragan so'zlarni aniqlab, ularni morfemik tahlilga tortamiz:

- 1) sayra+q+i=sayroqi (ayrim kitoblarda uning morfemik tuzilishi sayra+qi tarzida ham qayd etilgan); 2) qavi+q+i+ga=qavig'iga; 3) tara+q=taroq; 4) qayna+q=qaynoq; 5) quvna+q+lik+i=quvnoqligi.

Savolda shakl yasovchi qo'shimcha ta'sirida tovush o'zgarishi bilan yozilgan so'z yasovchi qo'shimchani aniqlash vazifasi berilgan. Ushbu talabga javob beruvchi so'zlar 2- hamda 5-gaplarda uchraydi.

Bunda **qavi** fe'l turkumiga oid so'zga **-q** so'z yasovchi qo'shimchasi qo'shilishidan **qaviq** so'zi hosil bo'lgan. Unga sintaktik shakl yasovchi **-i** egalik qo'shimchasi qo'shilishi natijasida **-q** so'z yasovchi qo'shimchasi tovush o'zgarishiga uchragan — "q" "g"ga almashgan.

Quvnoqlik so'zida ham -lik so'z yasovchi qo'shimchasidan keyin qo'shilgan **-i** sintaktik shakl yasovchi ta'sirida so'z yasovchida tovush o'zgarishi ro'y bergan. Qolgan uchta so'zda bu jarayon kuzatilmaydi. Mazkur savolning javobi — A.

18. Qaysi javobda berilgan so'zlarning ma'nolarini farqlovchi undosh tovushlar ham jarangli yoki ja-

rangsizligiga ko'ra, ham til qismlarining harakatiga ko'ra o'zaro bir turga mansub emas?

- A) qayla-qayra
B) narvon-karvon
C) quduq-quruq
D) dutor-duchor

JAVOB. Dastlab, so'zlardagi ma'no farqlovchi undoshlarni aniqlaymiz: qayla-qayra — l va r; narvon-karvon — n va k; quduq-quruq — d va r; dutor-duchor — t va ch.

Endi tovushlar tahliliga o'tamiz. Birinchi juftlikdagi **l** va **r** tovushlarining ikkalasi ham jarangli, til harakatiga ko'ra ikkovi ham til oldi undoshlari. Ikkinchi juftlikdagi **n** — til oldi jarangli, **k** esa til orqa jarangsiz. Uchinchi juftlikdagi **d** va **r** ning ikkalasi ham til oldi jarangli. To'rtinchidagilarning ikkovi ham til oldi jarangsiz.

Demak, bir turga mansub bo'lmagan undoshlar: n va k. To'g'ri javob esa — B.

21. Qaysi gapdagi undalma tarkibida 4 ta til oldi jarangli undosh qatnashgan?

- A) Yosh do'stim, o'qituvchi ham xuddi onadek mehribon, ulug'.
B) Botir bo'ling, bolalarim, dushmanga aslo bo'yin egmang.
C) Ey farzand, qancha notiq bo'lsang ham, o'zingni bilganlardan pastroq tutgil.
D) O, gul bahor, sen ochil, sochil, madh etayin men yoza-yoza.

JAVOB. Birinchi navbatda gaplardagi undalmalarni aniqlab olamiz: 1) yosh do'stim; 2) bolalarim; 3) farzand; 4) gul bahor. Bunda 3-gapda undalma oldidan undov so'z (ey) kelgan bo'lib, undalma emas. 1- va 4-gaplarda esa undalma so'z birikmasi holatida qo'llangan. Shu jihatlarga alohida ahamiyat qaratish lozim.

Endi undalmalardagi til oldi jarangli undoshlar (l, z, d, j, dj, n, r) sonini topamiz: 1) yosh do'stim — d (bitta); 2) bolalarim — l, l, r (uchta); 3) farzand — r, z, n, d (to'rtta); 4) gul bahor — l, r (ikkita). Demak, to'g'ri javob — C.

24. Millatning dahosi, aqli va ruhiyati maqollaridan bilinadi.

Ushbu gapdagi nechta so'z tarkibida jarangsiz til oldi undoshi qatnashgan?

- A) 5 ta B) 2 ta
C) 3 ta D) 4 ta

JAVOB. Ma'lumki, **t, s, ch, sh** — jarangsiz til oldi undoshlari hisoblanadi. Ular berilgan gapdagi 3 ta so'zda — millatning, dahosi, ruhiyati so'zlarida ishtirok etgan. Demak, mazkur savolning to'g'ri javobi — C.

JAVOBLAR

Til haqida umumiy ma'lumot. Fonetika

- 1 — A; 2 — D; 3 — C; 4 — A; 5 — C;
6 — C; 7 — D; 8 — B; 9 — D; 10 — A;
11 — D; 12 — A; 13 — A; 14 — B;
15 — A; 16 — C; 17 — C; 18 — B;
19 — D; 20 — C; 21 — C; 22 — B;
23 — A; 24 — C.

Ona tili va adabiyot

1. Hilol to'lib, oxir g'ildirak bo'ldi, Yulduzlar changidi samo yo'lida.
(Iqbol Mirzo).
- Ostiga chizilgan so'zda ma'no qaysi usulda ko'chgan?
A) metafora B) metonimiya
C) vazifadoshlik D) sinekdoxa
2. Tilimizda kelishik qo'shimchalari aro ma'nodoshlikning qaysi turi kuzatilmaydi?
1) -ga va -da; 2) -ga va -ni;
3) -ga va -dan; 4) -dan va -ning.
A) 1, 2 B) 2, 3, 4
C) faqat 2 D) barchasi kuzatiladi.
3. Qaysi gapda yasama so'zlar soni ikkita emas?
A) Mudroq qalblarni bir chaqin kabi uyg'otdi.
B) Ota-onaning roziligi umrni ziyoda qiladi.
C) Kimki berahmdir — rahm qilinmas, Kechirmaganlarni kechirmas Olloh.
D) Shirali dasturxonga pashsha ko'p yopishadi.
4. Qaysi gapda so'z yasovchi qo'shimcha qo'shilishi natijasida yuz bergan tovush o'zgarishi kuzatiladi?
A) Unganman qip-qizil bahor qo'ynida, g'am-alam, qayg'uga ulfat emasman.
B) Kokili gul bahorning quchog'ida yayra, qanot qoq.
C) Uzoqda baland-past tog'lar yashnaydi.
D) O'g'li olti yil deganda qamoqdan chiqqan edi.
5. Jarangli undoshlar bilan farqlanuvchi o'zaro paronim so'zlarni aniqlang.
A) ganj, ganch
B) borlik, borliq
C) dars, darz
D) yolqin, yorqin
6. Unisi bunaqa, bunisi unaqa de-yish bilan natijaga erishib bo'larkanmi, o'g'lim?!
Fonetik hodisalar sonini aniqlang.
A) 4 ta B) 7 ta
C) 5 ta D) 6 ta
7. Qaysi qatorda asli paronim bo'lgan so'zlar shakldosh holatida yozilgan?
A) Hadeganda yog'i chuchiy qolmasdi. Hovlining hamma yog'i yoqimsiz hidga to'ldi.
B) Qo'yni puch yong'oqqa to'lgan Sobirjon kasal qo'yni nima qilish haqida bosh qotirardi.
C) Qor yog'gan daladagi manzara kuyovimizga juda yoqqan edi.
D) Uning "Xayr" demay ketishida ham bir xayr bor.
8. Shevadagi "yorqanot" so'zining ma'nosi nima?
A) shapaloq B) varrak
C) kapalak D) ko'rshapalak
9. Siz uchun qalbim uyiga nur yoqdim... (Chustiy).
Ushbu gapdagi morfemalar sonini aniqlang.
A) 11 ta B) 13 ta
C) 9 ta D) 10 ta
10. "Tushuntirmoq" so'zi fe'lining qaysi ma'no turiga mansub?
A) tafakkur fe'li B) nutq fe'li
C) jismoniy holat fe'li D) sezgi fe'li
11. Qaysi gapdagi xatolik orfografiya (imlo) bo'limi bilan bog'liq?
A) Yomoni yaxshi desang, suyiladi.
B) Achchiq til odamni etar dar-badar.
C) Aybing shu — o'zгани mensimad-ing.
D) Shoxim, bir qoshiq qonimdan kechsangiz.
12. Ne desang-da, ranjimasman. Qo'shma gap turini aniqlang.
A) hol ergash gapli qo'shma gap
B) zidlov munosabati bog'langan qo'shma gap
C) to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap
D) Berilgan gap qo'shma gap emas
13. Shunga... haligi... so'ragan pulingizni opkeldim... (O. Yoqubov).
Mazkur gapda nutqning sofigiga putur yetkazuvchi qanday birliklar qo'llangan?
A) vulgarizmlar
B) parazit so'zlar
C) rasmiy so'zlar
D) varvarizmlar
14. Noto'g'ri yozilgan so'zni aniqlang.
A) bechora-yey
B) shuning-chun
C) tanimadi-yov
D) bekorchilar-chi
15. Yasalish asosi fe'l bo'lgan so'zni aniqlang.
A) eslatish
B) quchoqlab
C) g'ildirak
D) qo'rqoqlik
16. Yoshlar suhbatga berilib ketish-masin yana.
Fe'l nisbatini aniqlang.
A) birgalik
B) majhul
C) ortirma
D) o'zlik
17. Berilgan gaplarda "yolg'ondan" so'zi qanday bo'lak vazifasida kelgan?
1. Tuhmatdan, yolg'ondan juda qo'rqaman.
2. To'rt yoshli bola sezib o'tiribdimi: yolg'ondan "tugadi" deb qo'yavering.
3. Oilang buzilishi ham, ishdan haydalanish ham — hammasi o'sha kungi yolg'ondan.
A) 1) hol; 2) to'ldiruvchi; 3) kesim
B) 1) to'ldiruvchi; 2) hol; 3) kesim
C) 1) to'ldiruvchi; 2) hol; 3) to'ldiruvchi
D) 1) hol; 2) hol; 3) to'ldiruvchi
18. Qaysi gap tarkibidagi yordamchi so'zlar soni nisbatan ko'proq?
A) Chin donolar ustoz oldida shogirdligin unutmas aslo.
B) Qani, gapir-chi, sen ham o'shalar bilanmiding?
C) Afsuski, u ham ko'rki ko'r ko'rgan kunni.
D) Bu ishimdan sira afsuslanmadim, biroq o'shandan beri qo'ng'iroqlar tinmaypti.
19. Urg'u ma'no farqlash vazifasini bajaradigan so'zlarni aniqlang.
1) birdan; 2) akamiz;
3) banda; 4) filcha.
A) 1, 2, 3, 4
B) 2, 3, 4
C) 2, 4
D) 1, 3
20. Fonetik yozuv qoidasi asosida yozilgan so'zlar sonini aniqlang.
Har bitta daraxtda bir dil yashaydi, Tikilganim sari o'sadi ko'nglim. Ularga quloq sol, ularni tushun, Daraxtlar aldashni bilmaydi, o'g'lim.
A) 1 ta
B) 3 ta
C) 2 ta
D) 4 ta
21. Men sening ilkingdin, ey dil, bandamen.
Vah, qachon yetkaymen ul dilbanda men
Bevafolarga meni qilding asir.
Sen menga sultonsen, ey dil, banda men.
Ushbu tuyuqdagi olmoshlar sonini aniqlang.
A) 10 ta
B) 9 ta
C) 8 ta
D) 6 ta
22. O'z sevganiga xat yo'llagan ayol timsoli qaysi asarlarda uchraydi?
1) "Yevgeniy Onegin";
2) "O'tkan kunlar";
3) "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari";
4) "Kuntug'mish" dostoni.
A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 4
C) 1, 3, 4 D) 2, 3
23. Ko'nglumuz vayron-u, qosh-u ko'zda chindur masal — Kim: "Qolur masjid agar buzulsa, mehrobi aning".
Lutfiyning ushbu baytida qanday san'at qo'llanmagan?
A) tanosub
B) irsoli masal
C) tazod
D) tashbeh
24. Rasul Hamzatov nimani "jonimga Masih" deya ta'rifiydi?
A) she'riyatni
B) avar xalqini
C) ona tilini
D) e'tiqodini
25. Agar ko'nglung tilar jonimni olmoq, Qaroqchi ko'zlarindin bir qiyo boq.
(Atoy)
- Bayt vaznini aniqlang.
A) ramali musaddasi maqsur
B) hazaji musammani mahzur
C) muta'qoribi musammani maqsur
D) hazaji musaddasi maqsur
26. Urushda oyog'idan ayrilgan qahramonlar qatorini aniqlang.
1) Xol aka ("Nido");
2) Ikromjon ("Ufq");
3) Rustanning akasi ("Nido");
4) Ilhom samovarchi ("Urushning so'nggi qurboni").
A) 1, 2
B) 2, 3
C) 3, 4
D) 1, 4
27. Ajab yo'q tun-kun o'lsam mahvashimning justujo'yinda, Xayoli Qaysdin voqif gar o'lsang ... so'yinda.
Uvaysiy qalamiga mansub ushbu baytda nuqtalar o'rnida qanday so'z bo'lishi kerak?
A) Uzro
B) Zulayho
C) Layli
D) Shirin
28. "Yo, Jamshid!" hikoyasi muallifi kim?
A) Xayriddin Saloh
B) Nazar Eshonqul
C) Xurshid Do'stmuhammad
D) Xayriddin Sultonov
29. Furqatning aruz ilmiga oid asari qaysi javob variantida keltirilgan?
A) "Muxtasar"
B) "Ilmi ash'orning qoidayi avzoni"
C) "Aruz haqida"
D) "Mezon ul-avzon"
30. "Avesto"da tilga olingan Aniyron qanday joy?
A) ezgu fikr poygohi
B) ezgu so'z poygohi
C) ezgu amal poygohi
D) farog'at poygohi

Laplandiya — mo'jizalar mamlakati

Siz yangi yil arafasida insonlardan minglab maktublar olib, ularning orzularini ro'yobga chiqaradigan haqiqiy Santa Klaus borligiga ishonasizmi? "Axir bu shunchaki, bolalar uchun o'ylab topilgan ertakku" deyotgandirsiz? Balki chindan shundaydir. Ammo dunyoda shunday g'aroyib o'lka borki, u yerda barcha ertaklar haqiqatga aylantirilgan. Bu — mo'jizalar mamlakati Laplandiya bo'lib, unda bolalarning sevimli qahramoni — haqiqiy Santa Klaus yashaydi.



Finlandiya viloyatlaridan biri bo'lgan Laplandiyani nafaqat ertaklardagi, balki bizning dunyomizdagi eng sirlilik o'lkalardan biri deyish mumkin. Chunki hech qachon mustaqil davlat sifatida qayd etilmagan bu diyorni na qadimgi, na zamonaviy siyosiy xaritada topolmaysiz. Shunga qaramay, Laplandiya betakror tabiat manzarasi, son-sanoqsiz bug'ulari, dunyoda o'xshashi yo'q shimol yog'dusi hamda haqiqiy Santa Klaus bilan jahonga mashhur.

Laplandiyaning umumiy maydoni 100 000 kvadrat kilometr teng bo'lib, Finlandiya hududining uchdan bir qismini egallaydi. U Shvetsiya, Norvegiya va Rossiya bilan chegaradosh. Bu yerda eng qadimgi davrlardan buyon saam xalqi — laplandiyaliklar yashab keladi. 200 ming kishidan iborat tub aholi qadimgi ona tilini saqlab qolgan holda hududlarga mos tarzda o'nlab shevalarda so'zlashadi.

Laplandiyada yilning to'rt fasli ham o'z o'rnida keladi, ammo insonlar ko'proq qish faslini orziqib kutadi. Garchi bu o'lka Arktikadan uzoqda joylashgan bo'lsa-da, bu yerda qish yaxshigina sovuq keladi. Yanvar oyida o'rtacha harorat minus 11 gradus bo'lishiga qaramay, ba'zan havo harorati minus 50 gradusgacha yetadi. Ammo namlik past bo'lgani bois, sovuq u qadar sezilmaydi. Yer taxminan 175–225 kun qor bilan qoplanadi. Doimiy kuchli shamol esadi. Yozda esa havo harorati +30 gradusgacha iliq bo'ladi.

Qish mavsumida Laplandiyaga keluvchi sayyohlar soni ham ortadi. Boisi, bu vaqtda Laplandiya yer yuzidagi eng go'zal maskanga aylanadi. Qish oylarida haqiqiy qutb tuzi hukmronlik qiladi va osmonda yer yuzidagi eng g'aroyib mo'jiza — shimol yog'dusi paydo bo'ladi. Rang-barang yog'dular tunda nihoyatda yorqin va betakror nur socha-



di. Olamni chulg'agan ranglar birikmasi har qanday mahoratli rassomni hayratga sola oladi. Bu vaqtda yulduzlar ham tuni bilan o'zgacha porlaydi. Laplandiyadagi bu g'aroyib hodisa sentabr dan to aprel oyiga qadar namoyon bo'ladi. Bunday sehirli osmon ostida nafaqat bolalar, hatto kattalar ham o'zini ertaklar olamida his etadi va beixtiyor mo'jizalarga ishona boshlaydi.

Tabiatning bu go'zalligini so'z bilan ta'riflash qiyin. Uni faqat ko'z bilan ko'rish va zavqlanish kerak. Tadqiqotchilar shimoliy qutbning sehrini anglab yetish uchun inson bu yerning maftunkor tabiati bilan ruhan birlashib ketishi lozimligini ta'kidlaydi. Zero, Laplandiya bo'ylab sayohat qilgan har bir kishi bunga o'zi amin bo'ladi.

Laplandiyadagi Abisku milliy bog'i shimol yog'dusini tomosha qilish va tabiatning nurlar shousini kuzatish uchun eng yaxshi joy sanaladi. Bu yerda butlular kam paydo bo'lgani bois osmon yanada tiniq ko'rinadi. Aytish joizki, deyarli barcha insonlar Laplandiyaga shimol yog'dusini ko'rish umidida boradi, ammo bu mo'jizaga guvoh bo'lish hammaga ham nasib etmaydi. Buni anglagan aksariyat sayyohlar mahalliy mehmonxonalar xodimlaridan osmonda shimol yog'dusi porlaganda, uni uyqudan uyg'otishlarini iltimos qilib, buning uchun ishchilarga yaxshigina haq to'laydi.

Laplandiyada hatto qahraton sovuq ham kishilarga o'zgacha zavq bag'ishlaydi. Bu yerda sayyohlarning qor us-

da piyoda sayr qilib, hududning go'zal tabiatini tomosha qilishi uchun maxsus yo'laklar mavjud. Yanada ko'proq taassurotlar olish istagidagi mehmonlarni esa mahalliy aholi bug'ular yoki itlar qo'shilgan chanalarda uchirishga hamisha tayyor. Laplandiyada zamonaviy ko'rinishdagi transportlar yetarlicha, ammo saamlarning o'zi ham bepoyon qorli dalalar bo'ylab ana shunday chanalarda yurishni afzal ko'radi. O'lkaning sayr qilish uchun sayyohlar qorda yuradigan mashina yoki velosipedlarni ham ijaraga olishlari mumkin. Ammo haqiqiy bug'ular turganda insonlarning mashinalarda yurishi amrimahol. Axir, bug'ular qo'shilgan chanada uchish har doim ham nasib etavermaydi.

Biroq saam xalqi uchun har kuni bug'ularni ko'rish odatiy hol. Chunki Laplandiyada 200 mingdan ortiq shimol bug'ulari yashaydi. Ularning soni hatto o'lka aholisi sonidan ham ko'p bo'lib, bug'ularni istalgan joyda uchratish mumkin. Ushbu beozor jonivorlar ko'chalar bo'ylab xuddi odamlardek erkin kezib yuradi. Shu bois har qadamda "Ehtiyot bo'ling, bug'ular!" yo'l belgisiga duch kelasiz.

Laplandiya aholisining asosiy qismi bug'uchilik bilan shug'ullanadi. Aksariyat taomlari ham bug'u va baliq go'shtidan tayyorlanadi. Insonlar baliqni ko'llardan ovlaydi. Inari — Laplandiyadagi eng katta ko'l bo'lib, uning maydoni 1100 kvadrat kilometr teng. Paz daryosiga borib quyiladigan mazkur ko'l suvi juda toza bo'lib, mahalliy aholi undan ichimlik suvi sifatida foydalanadi.

Laplandiyaliklarning harakatlanish vositalaridan yana biri — tog' chang'isidir. Finlandiyada 76 ta tog' chang'i kurorti bo'lib, ulardan eng mashhurlari Laplandiyada joylashgan. Bu yerdagi ko'psonli qoyalar tog' chang'isida uchish uchun eng qulay joy sanaladi. Zarur obyektlar tog' yonbag'irlarida qurilgan. Ularda tog' chang'isi ishqibozlari aslo zerikib qolmaydi. Ayniqsa, Levi, Yullyas, Ruka kurort shaharlari doim sayyohlar va sportchilar bilan gavjum. Mashg'ulotlar yanada zavqli bo'lish uchun dengiz sathidan 600 metr balandlikda sayyohlar uchun umumiy uzunligi 3 kilometr bo'lgan tepa-pastliklardan iborat yo'laklar ham tayyorlangan.

Qish faslida Laplandiyaga borish uchun sabablar bisyor. Ammo ular orasida eng asosiysi — haqiqiy Santa Klausni ko'rish istagidir. Aksariyat insonlar qish faslining asosiy qahramonlari — Santa Klaus va Qorbobo aynan Laplandiyada tug'ilganiga ishonadi. Bundan unumli foydalangan sayyohlik biznesi vakillari Laplandiya shaharlaridan biri Rovaniydan 8 kilometr uzoqlikda Santa Klaus qarorgohini barpo etgan. U yergacha avtobus yoki shaxsiy avtomobilda yetib olish mumkin. Rovaniy shahrida sayohatchilar, shuningdek, san'at muzeyi, Lappiya qasri, katta kutubxonada hukumat binolarini ham tomosha qilishlari mumkin.

Santa Klaus tarjimai "tepa-quloq" ma'nosini anglatuvchi Korvatunturi tog'ida yashaydi. Ushbu tog' ko'rinishi

ba'zan it, ba'zan quyoning quloqlarini yodga soladi. Mahalliy aholi aynan shuning uchun Santa barchaning istak va orzularini eshita olishiga ishonadi.

Laplandiyada Santa Klausni Yolu-puki deb atashadi. Uning hatto turmush o'rtog'i hamda fuqarolik pasporti ham bor. Guvohnomadagi "tug'ilgan sanasi" deb yozilgan qismiga "allaqachonlar" deb qayd etilgan.

Santa Klausning qishlog'i hamisha mehmonlar bilan to'la. Unda Santaning kattagina qarorgohi, xatlarni yetkazuvchi va qabul qiluvchi pochta, suvenirlar do'koni, muzli labirint, qor odamlar hamda mehmondo'st eflarni uchratish mumkin. Bolalarning mehribon sehrgari o'z qarorgohida istovchilarni qabul qilib, ularning tilaklarini bajonidil tinglaydi. Santaning uyiga kirish va u bilan suhbatlashish barcha uchun bepul, faqat tushilgan fotosuratlar uchunгина haq to'lanadi. Sayyohlar, shuningdek, Santa ustaxonasida joylashgan pochta bo'limiga borib, haqiqiy Santa Klaus yozgan xatni o'zlarining uy manzillariga jo'natishlari mumkin.

Aytishlaricha, Santa Klaus qishlog'iga tashrif buyurgan ilk sayyoh AQSh prezidenti Franklin Ruzveltning rafiqasi Eleonora Ruzvelt bo'lgan. Bu voqea 1950-yilda sodir bo'lgan va o'shanda Eleonora sharafiga uycha qurilgan bo'lib, u hozirgacha saqlanadi. Shunga qaramay, amerikaliklar hamisha Santa Laplandiyada emas, Shimoliy qutbda yashaydi, deb hisoblaydi. Aksariyat bolalar ham Santaning shimolda yashashiga ishonadi. Ularning hafsalasini pir qilish niyatimiz yo'q, ammo Shimoliy qutbda inson yashashi uchun sharoit yo'q, u yer faqat shimoliy muz okeanidan iborat. Laplandiya esa chinakam qorli o'lka bo'lib, qishda Shimoliy qutbdan sira qolishmaydi.

Laplandiyada yashovchi Santa Klaus o'z faoliyatini qachon va qay tarzda boshlagani haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Balki bu uning sirliligini yanada oshirar. Muhimi, dunyo bolalari Santaning borligi va orzularini ro'yobga chiqarishiga ishonadi. Shu bois har yili Santa Klausning pochta manziliga sayyoramizning turli burchaklaridan yarim million xat va otkritkalar keladi. Ishchilarning aytishicha, konvert ustida ko'pincha "Finlandiya, 99999, Korvatunturi" yoki shunchaki "Finlandiya, Santa Klaus" manzili ko'rsatilgan bo'ladi.

Yerni qoplagan qalin qor, ko'chalarda kezib yuradigan haqiqiy bug'ular, archalar bilan o'ralgan betakror tabiat manzarasi, dunyoda tengi yo'q shimol yog'dusi, eng muhimi, Santa Klaus uyida mehmon bo'lib, unga barcha tilaklarni aytish imkoniyati nafaqat bolalar, hatto kattalarda ham bir umrlik unutilmas taassurotlar qoldirishi shubhasiz. Santa Klausning haqiqiy yoki haqiqiy emasligi ahamiyatsiz. Asosiysi, bolalarning Santa timsolida mo'jizalar hamda o'z orzulari ro'yobga ishonishlaridir. Bunday zavqli onlarni faqat Laplandiya — mo'jizalar mamlakatidagina his etish mumkin.

"Hayot kurashdan iborat..."

Ilm — mavjlanib turgan bir dengiz. Yuragida o'ti bor, qiyinchiliklarga bardoshli g'avvosgina — uning tubidagi durlarni topib, elning qo'liga tuta oladi. Ana shunday zahmatkash olimlarimizdan biri texnika fanlari doktori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi Sarvar Qodirovdir.

Sarvar aka 1940-yil 11-fevralda Toshkent shahridagi "Allon" mahallasida oddiy dehqon oilasida dunyoga keldi. Maktabni a'lo baholarga tugatib, O'rta Osiyo poliximika institutining mexanika fakultetiga "Avtomobilarni ekspluatatsiya qilish" ixtisosligi bo'yicha o'qishga qabul qilindi. Institutda O.Salimov, L.Hakimov, L.Muhammedov, K.A.Xoroshev kabi yetuk olimlarning etagidan tutib, ilm sirlarini puxta o'rgandi. Oltin davr poyoniga yetgach, Yangiyer avtobazasida ish boshlagan Sarvar Qodirovning qalbidagi ilm yo'lida davom etish istagi olovlanardi. Izlanuvchan, tirishqoq shogirdi yonida bo'lishini istagan ustozlari ko'p o'tmay kafedra a'zolari nomidan Sarvar Qodirovni assistent sifatida ishga taklif qildi.

1972-yili dotsentlik unvonini oldi. O'sha yillari uning muallifligida "Avtomobil dvigatellari" nomli darslik chop etildi. U soha bo'yicha nashr qilingan ilk o'zbek tilidagi darslik edi.

1975-yili Moskvadagi Avtomexanika institutining "Avtomobil va traktor dvigatellari" kafedrasiga sirtqi doktoranturaga qabul qilindi.

— Doktorlik ishi bilan shug'ullanishim uchun hech qanday sharoit yaratilmagan, — deydi Sarvar aka o'sha damlarni esga olarkan. — Ba'zi olimlar butunlay dars bermas, faqat o'z ilmiy ishlari bilan band edi. Asl maqsadlari unvon edi. 1981-yili dissertatsiyamning birinchi variantini "Is-siqlik dvigatellari" mutaxassisligi bo'yicha tayyorlab, MADI professori V.N.Lukaning topshirdim. U avtorferatni ko'rib opponentlik degan fikrga kelishdi. So'ngra Toshkentga kelib 7 oy davomida izlanib, ishni yana muhokamaga topshirdim. Afsuski, biroq o'tib MADI rektori nomidan raqamsiz xat keldi. Unda mening dissertatsiyamga salbiy


baho berilgan. Darhol ilmiy ish bo'yicha prorektorimiz professor A.D.Moshkov bilan maslahatlashib rektorga ariza yozdim va ishni muhokamadan qaytarib oldim. Ilmiy ish natijalari qishloq xo'jaligi uchun suv va havodek zarur. Chunki unda qishloq xo'jaligi mashinalari dvigatellarining ish unumini va ishlash muddatini oshirish muammosi hal qilingandi. Erinmay Leningrad va Kiyev shaharlariga borib, olimlar bilan uchrashdim. Leningrad qishloq xo'jaligi institutida aynan mening sohama juda mos keladigan ilmiy kengash borligidan quvondim. Ilmiy kengash kotibi professor Shkrabak (hozir shu institut rektori) bilan "mutaxassislik pasporti"ga solishtirdik. Ma'lum bo'ldiki, men olgan ilmiy natijalar ayni uzukka ko'z qo'ygandek pasportga mos tushdi. Natijada 1984-yil yanvarida ishni LQXI-da bo'lib o'tgan Butunittifoq anjumanida ko'rikdan o'tkazishdi. Ish joiy baholandi. Iyun oyida opponentlar tasdiqlandi. 1984-yil 26-noyabrda asosiy himoya bo'lib o'tdi. Bu mening hayotimdagi eng quvonchli kunlarining biri edi.

Shunday qilib mashaqqatli kurashlardan so'ng 1987-yil 27-martda S.Qodirovga texnika fanlari doktori ilmiy unvoni berildi. Eng muhimi, institutda doktorlik yoqlamoqchi bo'lgan yosh olimlarda ishonch paydo bo'ldi.

— "Haqiqat bor ekan-ku! Agar Sarvar akaning ishlarni tasdiqlashmagan-da, ilmiy ishni davom ettirmasak ham bo'ladi, deyishgandi o'shanda ular", — deya xotirlaydi Sarvar Qodirov. — Bu kurashlarda men ham olim, ham inson sifatida chiniqdim, dushmanlarim meni yangi-yangi g'alabalarga chorlashdi, men ulardan mamnunman.

1987-yili TAYIDan unvonga nomzodlar ko'rsatila boshlandi. Shu kezlarda ular faoliyat yuritayotgan "Avtotransport" fakulteti dekani G'olibjon aka: "Sarvar aka, siz nega unvonga harakat qilmayapsiz, axir

Elda aziz



siz yozgan o'zbek tilidagi birinchi darslikdan nafaqat yoshlar balki olimlar ham foydalanishmoqda. Mana 25 yil davomida shu dargohda yoshlarga bilim berib kelasiz, yaqinda fan doktori ham bo'ldingiz, hech ikkilanmay hujjatlarni tayyorlang", dedi. Shu tariqa mashaqqatli mehnatlari evaziga 1989-yil Oliy Kengash farmoniga muvofiq Sarvar Qodirovga O'zSSRda xizmat ko'rsatgan fan arbobi unvoni berildi. Adolat qaror topdi.

1991-yili SSSR parchalanib ketgandan so'ng VASXNIL O'rta Osiyo bo'limi o'rta O'zbekistonda ham qishloq xo'jaligi fanlar akademiyasini tashkil qilish haqida qaror qabul qilindi. Sarvar Qodirov avvalo professor Shukrulla Yo'ldoshevga qo'ng'iroq qilib, "Qishloq xo'jaligi mashinalarini loyihalashtirish texnologiyasi" mutaxassisligi sizga e'lon qilingan bo'lsa kerak, agar shunday bo'lsa, men hujjatlarni topshirmayman, — deb aytdi. Yo'ldoshev: "Sarvarjon, bu men uchun e'lon qilingan emas, bemalol hujjatlaringizni topshiraveringiz", — dedi. Shundan keyin Qodirov katta ustoz Oqil Salimov bilan bu borada maslahatlashdi. U ham "Siz hech xijolat bo'lmay, hujjatlarni tayyorlab topshiring", dedi. Do'stlari ham siz olim sifatida bu joyga loyiqsiz, deyishdi.

Sarvar Qodirov O'zbekiston qishloq xo'jaligi fanlari akademiyasining muxbir a'zozligiga "Qishloq xo'jaligi mashinalari

konstruksiyasi texnologiyasi" sohasi bo'yicha saylandi. Yaqin do'stlar chindildan qutlashdi.

Sarvar Qodirov o'zining ilmiy izlanishlari yo'lida 21 o'zbek va rus tillaridagi darsliklar, 26 o'quv qo'llanma, 12 nomdagi lug'atlar, 9 monografiya, 47 badiiy risola hamda 300 dan ortiq ilmiy maqolalar yozdi. Barcha ilmiy ishlari O'zbekiston fan-texnika davlat qo'mitasining ustuvor yo'nalishlariga kiradi va qishloq xo'jaligimiz oldida turgan dolzarb muammolarni hal qilishga bag'ishlangan.

Olimning "Автомобильные и тракторные двигатели" darsligidan Osiyoning 20 ga yaqin davlati universitetlarida foydalaniladi. 1995-yili ushbu darslik Tehronda o'tgan "Al-Xorazmiy II Jahon ilm-fan festivali"da sovrindor bo'ldi. Muallif "Al-Xorazmiy" mukofoti bilan taqdirlandi. Sarvar aka yurtimizda ushbu unvonga sazovor bo'lgan yagona olimdir.

Aynan bu darslik 2007-yili rus tilida qayta Moskvada chop etilib, Rossiya texnika universitetlariga darslik sifatida tavsiya etildi. 2013-yilga kelib bu kitob ingliz tiliga o'g'irilib dunyo bo'ylab tarqatildi.

Sarvar Qodirov sobiq SSSR va O'zbekiston xalq ta'limi a'lochisi, Nyu-York fanlar akademiyasining Xalqaro muhandislik, xalqaro informatizatsiya, xalqaro gumanizm muammolari akademiyalarining akademigi etib saylangan. Ikki marta "Yil insoni" unvonga sazovor bo'lgan. Rossiya professorlar klubi a'zosi.

Ustoz nafaqat texnika sohasi, balki adabiyot sohasida ham barakali ijod qilib kelmoqda. Uning qalamiga mansub "Yaqin o'tgan kunlar", "Taqqir" asarlari rus tilida chop etildi. Yaqinda bu asarlar ingliz tiliga o'g'irilib Hindistonda ham nashr etildi.

"Orzul qanotida" kinogissasi hamda "Oybek va Oydin" romanlari Sarvar Qodirovning hayotiga bag'ishlangan xotiralardir.

— Bir narsaga amin bo'ldimki, baltlanga doim tole yor bo'larkan, — deydi adolat yo'lida kurashib charchamaydigan, izlanuvchan olim Sarvar Qodirov. — Hayot kurashdan iborat. Kurashsiz hayotning qizig'i yo'q. Qarshiliklar bo'lmaganida, balki men fan cho'qqilariga chiqmagan bo'larmidim?

Bu yil tabarruk 80 yoshini qarshi olgan olimimiz yurtimiz kelajagi va ravnaqi yo'lida yangidan yangi kashfiyotlar qilishini, avvalo, sihat-salamatlik, oilaviy xotirjamlik tilab qolamiz.

Shojalol SHOQQOSIMOV

Oddiy ustozning oddiy haqiqatlari

Inson hayoti qancha yashagani bilan emas, qanday yashagani bilan o'lchanadi. Fidoyi mehnatlari tufayli el-yurt hurmatiga sazovor bo'lgan ustozlarimiz talaygina. Davlatoy Ochilova ana shunday fidoyi, zahmatkash ustozlardan.

1966-yili Qamashi tumani Guliston qishlog'idagi 42-maktabni a'lo baholarga tugatgan Davlatoy va uning to'rt sinfdosh dugonalari maktab direktori Eshman To'rayev tomonidan oliy o'quv yurtida o'qishni davom ettirish uchun tanlab olindi. O'sha yillari qizlarni shaharga o'qishga yuborish oson emadi. Maktab ma'muriyati ularning ota-onalaridan ruxsat olib, hujjatlarini Qarshi davlat pedagogika institutining kimyo-biologiya fakultetiga topshirdi. Davlatoy va ikki dugonasi kirish imtihonlarini a'loga topshirdi. Ular o'qish davomida doim faol talabalar safida bo'lishga harakat qildi.

Talabalik yillari ortda qolgach, Davlatoy qishloqdoshi oliy ma'lumotli shifokor Xudoyberdi Rahimov bilan oila qurdi. Ikki yosh mutaxassis yo'llanma bilan tog'li Ko'kbuloqqa ishga yuborildi. Yosh shifokor va yosh muallima yelkandosh bo'lib tug'dagi og'ir sharoitda mehnat qilib, hayotning achchiq-chuchuk sinovlaridan o'tishdi. To'rt yildan so'ng oilasi, farzandlari bilan ona qishlog'iga qaytgan Davlatoy o'zi o'qigan maktabda avval o'qituvchi, so'ngra o'quv

ishlari bo'yicha ilmiy mudir vazifasida faoliyat olib bordi.

— Davlatoy dugonam talabchan va qat-tiqqo'l tashkilotchi bo'lish bilan birga, har bir hamkasbining hurmatini joyiga qo'yar, kamchiliklarini birovlarining oldida emas, alohida o'ziga aytardi, — deydi nafaqadagi kimyo fani o'qituvchisi Sofiya Normamato'va. — Yoshlarga har tomonlama namuna bo'lishimni talab qilardi. "Maktabda, oilada, ko'cha-ko'yda ham o'zingizning kim ekanligingizni unutmang! Chunki sizlar oddiy odam emas, elning kelajagini hal qiluvchi, ta'lim-tarbiya sohasiga bamisoli jon bag'ishlaydigan kuchsizlar", deb ko'p uqtirardi.

O'sha yillari maktab tumandagi eng ilg'or ilm maskanlaridan biriga aylandi va ta'lim sohasidagi yutuqlari bois Davlatoy Ochilova "Hurmat belgisi" ordeni bilan taqdirlandi.

— Mukofotga E.To'rayev, Abdi Rahimov kabi ustozlarimning yo'l-yo'riqlariga amal qilganim evaziga erishdim, — deydi D.Ochilova. — Ustozlar bizni shunchaki yashashga, ishlashga emas, fidoyilikka o'rgatdilar. Ularning o'g'itini olib kam bo'lmadim.

"Rahbar shunday bo'lishi kerakki, har tomonlama jamoaga, qishloq ahliga, o'quvchilarga o'zining go'zal xulqi, fazilatlari, fidoyiligi bilan namuna bo'lsin. Jamoani jipslashtira olishi, kezi kelganda mehribon, har bir odamni tinglay olishi, muammolarni hal etishda tadbirkor, bilim salohiyati yuqori, yetuk shaxs bo'lmog'i kerak. Men Davlat Ochilovada bu fazilatlarning barchasi mujassam deb bilaman", degan edi rahmatli ustozlardan biri Nabi Ro'ziyev. O'shanda jamoa maktab direktorligiga bir ovozdan meni sayladi. Ustozlar va hamkasblarning ishonchi menga kuch-quvvat berdi.

— Davlat opa direktor etib saylangach, maktabda katta o'zgarishlar bo'ldi, — deydi o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinsosari vazifasida ishlagan nafaqadagi muallim Xudoyoy Boyqobilov. — O'ta talabchan, bir so'zli, bilimdon va tadbirkor rahbar sifatida faoliyat olib bordi. O'z kasbiga bo'lgan sadoqat, muhabbat, vatanparvarlik tuyg'ulari unga madadkor bo'lib, yo'lida duch kelgan har qanday qiyinchiliklarni matonat bilan yenga oldi. Zimmasidagi ishlarning hammasini katta muhabbat va fidoyilik bilan bajardi. Ish faoliyatim davomida bir necha direktor bilan ishladim. Davlat Ochilovaga yetadigani kam bo'lgan. Bu kishi rahbarligida maktab gullab-yashnadi.

Ayol kishiga rahbar bo'lish oson emas. Turmush o'rtog'i Xudoyberdi Rahimov unim doim go'lab-quvvatladi. Ular havas qilsa arziydigan baxtli oilalar qatorida edi. Ammo X.Rahimovning bevaqt vafoti muallimaga qattiq zarba bo'ldi. O'sha kezlarda yurak-bag'ri ezilib, dunyo ko'ziga qorong'i ko'rindi. Davlatoy sabrli, matonatli bo'lgani uchun o'zini qo'liga olib, umr yo'ldoshining qabri ustida unga so'z berdi: "Men hamma bolalarimizni o'qitib, sizga munosib, el koriga yaraydigan farzandlar etib voyaga yetkazaman". Bu so'zlar uni olg'a intilishga, yashashga, ozularini amalga oshirishga, sabr-qanoatga, irdolari bo'lishga undadi. Oson bo'lmadi, biroq u va'dasining ustidan chiqdi. O'g'illari Erkin va Nizomjon, qizlari Fazilat, Farog'at, Mahbuba, Nafisani otasi orzu qilganday o'stirdi. Farzandlarining barchasi hayotda o'z yo'lini topdi. Bir qizi ota kasbini tanladi, bir qizi onasi izidan bordi.

Xalqimizda "Ustoz otangdan ulug'" degan hikmat bor. Bu hikmatning bejiz aytilmaganini, el-yurt g'ami, tashvishi bilan yashaydigan fidoyi o'qituvchilar jamiyat tayanchi ekanligini Davlat opa Ochilova kabi ustozlarning ish faoliyati va umr yo'llarini o'rganib anglab yetamiz.

Risolat JUMANAZAROVA,
Qamashi tumani
42-maktab o'qituvchisi

Nishanbayeva Enajon Zaripbayevnaning 23.00.02 — Siyosiy institutlar, jaronlar va texnologiyalar ixtisosligi bo'yicha "O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda ijtimoiy sheriklikni takomillashtirish mexanizmlari (ijtimoiy-siyosiy tahlil)" mavzusidagi (siyosiy fanlar bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.29.08.2017.S.01.08 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 7-fevral kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21; e-mail: rector@nuu.uz

Vaxabova Nargiza Maksudovnaning 14.00.13 — Nevrologiya ixtisosligi bo'yicha "Keksalardagi ishemik insult klinikasi va terapiyasidagi gender ko'rsatkichlari" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent vrachlar malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Tib.31.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 18-fevral kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100007, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani,
Parkent ko'chasi, 51-uy. Tel/faks: (71) 268-17-44, 268-17-44;
e-mail: info@tipme.uz

Tuychiyeva Inoyatxon Ibragimovnaning 13.00.08 — Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tayyorlov guruhi bolalarining fikrlash faolligini rivojlantirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.12/30.12.2019.Ped.80.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 18-fevral kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100070, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani,
Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 64-uy.
Tel/faks: (71) 150-01-27; e-mail: info@mdomoi.uz

Muxitdinov Vasliddin Najmudinovichning 06.01.08 — O'simlikshunoslik ixtisosligi bo'yicha "Soya hosildorligi va doni sifatini oshirishda gerbitsidlar hamda mikroelementlar qo'llash tizimini takomillashtirish" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (RHD) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/30.12.2019.Qx.42.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 14-fevral kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Botanika M.F.Y., PSUYAITL. Tel: (95) 142-22-36; faks: (71) 150-61-37;
e-mail: piim@agro.uz, paxtauz@mail.ru

Islomov Ismoilning 06.01.02 — Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik ixtisosligi bo'yicha "Shimoliy va Janubiy Tojikiston hamda O'zbekistonning Buxoro viloyati sharoitida bedani sug'orish rejimini mineral o'g'itlar me'yoriga bog'liq holda o'rg'anishning ilmiy asoslari" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05.30.12.2019.Qx.42.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 14-fevral kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika M.F.Y., PSUYAITL.
Tel: (95) 142-22-36; faks: (71) 150-61-37;
e-mail: piim@agro.uz, paxtauz@mail.ru

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi rahbariyati va jamoasi inspeksiyaning Nodavlat ta'lim muassasalari faoliyatini litsenziyalash bo'limi bosh mutaxassisi Shuhrat Ulug'ovga onasi

MASHG'ULOT hoji ayanning

vafoti munosabati bilan ta'ziya bildiradi.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti jamoasi Taekvondo va sport faoliyati fakulteti dekani Vladimir Rahimovga turmush o'rtog'i, universitetning xorijiy filologiya fakulteti "Ingliz filologiyasi" kafedrasida katta o'qituvchisi

Dilbar RAHIMOVANing

vafoti munosabati bilan ta'ziya bildiradi.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti jamoasi Biologiya fakulteti "Tuproqshunoslik" kafedrasida professori Laziza G'afurovaga onasi

HURIXON ayanning

vafoti munosabati bilan ta'ziya bildiradi.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti jamoasi Biologiya fakulteti "Ekologiya" kafedrasida professori Lola Egamberdiyevaga otasi

SHUHRAT otaning

vafoti munosabati bilan ta'ziya bildiradi.

FIDE reytingida O'zbekistonliklar

Jahon shaxmat federatsiyasining har oy e'lon qilinadigan reytingida ayni damda kuchli 100 likdan birgina shaxmatchimiz o'rin olgan. GM Rustam Qosimjonov (1979-yili tug'ilgan) 2661 reyting bali bilan 78-o'rinda.

FIDE o'smirlarning reyting o'rinlarini alohida hisoblab boradi. 20 yoshgacha eng kuchli 100 nafar yosh shaxmatchilar ro'yxatidan ayni paytda 4 shaxmatchimiz o'rin olgan:

7. GM Nodirbek Abdusattorov (2004) — 2644.
17. GM Nodirbek Yoqubboyev (2002) — 2591.
34. GM Javohir Sindorov (2005) — 2537.
39. IM Shamsiddin Vohidov (2002) — 2526.

Bu ro'yxatda, shuningdek, hozir Avstraliya fuqaroligini olgan GM Temur Qo'yoqarov (2000) ham bor: 2530 reyting bali bilan 37-o'rinda.

18 yoshgacha

3. GM Nodirbek Abdusattorov (2004) — 2644.
8. GM Nodirbek Yoqubboyev (2002) — 2591.
16. GM Javohir Sindorov (2005) — 2537.
18. IM Shamsiddin Vohidov (2002) — 2526.



16 yoshgacha

1. GM Nodirbek Abdusattorov (2004) — 2644.
6. GM Javohir Sindorov (2005) — 2537.

10 yoshgacha

13. Humoyun Bekmurodov (2010) — 1910.
Ayni paytda O'zbekistonning eng kuchli 10 shaxmatchisi:

1. GM Rustam Qosimjonov (1979) — 2661.
2. GM Nodirbek Abdusattorov (2004) — 2635.
3. GM Nodirbek Yoqubboyev (2002) — 2597.
4. GM Javohir Sindorov (2005) — 2537.
5. GM Jahongir Vohidov (1995) — 2533.
6. GM Jo'rabek Hamroqulov (1988) — 2532.
7. IM Shamsiddin Vohidov (2002) — 2526.
8. GM Mixail Saltayev (1962) — 2475.
9. IM Ortiq Nig'matov (2000) — 2467.
10. Saidali Yo'ldoshev (1968) — 2430.

Xotin-qizlar o'rtasida FIDE reytingida mamlakatimizning birinchi raqamli shaxmatchisi Gulruxbegim Tohirjonova (1999) kuchli yuzlikdan o'rin olgan: 2378 reyting bali bilan 83-o'rinda.

O'smir qizlar reytingida vakillarimiz:

20 yoshgacha

60. Nilufar Yoqubboyeva (2000) — 2262.

14 yoshgacha

44. Umida Omonova (2006) — 1889.

12 yoshgacha

70. Afruza Hamdamova (2009) — 1597.

10 yoshgacha

80. Shahzoda Hasanova (2010) — 1324.

Xotin-qizlar o'rtasida ayni paytda O'zbekistonning eng kuchli 10 shaxmatchisi:

1. WGM Gulruxbegim Tohirjonova (1999) — 2378.
2. Nilufar Yoqubboyeva (2000) — 2262.
3. WGM Irina Gevorgyan (1990) — 2245.
4. WGM Sarvinoz Qurbonboyeva (1994) — 2234.
5. WIM Sevara Boymurodova (1990) — 2140.
6. WIM Bahora Abdusatorova (1999) — 2094.
7. WIM Nodira Nodirjonova (1990) — 2085.
8. WFM Sitara Saporova (2002) — 1970.
9. WIM Yulduz Hamroqulova (1989) — 1961.
10. Rayhon Doniyorova (1992) — 1948.



Barcha abituriyentlar, ota-onalar va o'qituvchilar diqqatiga!

“Marifat” gazetasi sahifalarida:

abituriyentlar uchun

DTM testlari darajasidagi sinov testlari

o'qituvchilar uchun

PISA

PIRLS

TIMSS

testlaridan namunalari e'lon qilina boshlandi.



Vaqtidan yutqazmang. Nashrimizga tezroq obuna bo'ling! Gazetaning o'z vaqtida yetib borishini istasangiz, “O'zbekiston pochta” AJ va “Matbuot tarqatuvchi” AKning hududiy filiallariga murojaat qiling!

“Marifat” gazetasiga 2020-yil uchun obuna davom etadi.

Bundan tashqari, o'tgan yilgi kirish imtihonidagi murakkab testlar yechimiga doir

SHARHLAR;

IZOHLAR;

O'QUV LUG'ATLARI

muntaзам berib boriladi. Shu bilan birga, o'qituvchi-murabbiylar uchun

ATTESTATSIIYA TESTLARIdan namunalari ham e'lon qilinadi.



Yakka tartibdagi obunachilar uchun nashr indeksi 149
Korxonalar va tashkilotlar uchun nashr indeksi 150

Manzil: 100000, Toshkent sh., Matbuotchilar 32-uy.
Tel.: (71) 233-50-55, faks: (71) 233-99-15.

Bizni internetda ham kuzating!

www.marifat.uz /marifat.uz @marifatziyo

Nashrimizga obuna bo'lishni istaganlar uchun

“O'zbekiston pochta” AJ va “Matbuot tarqatuvchi” AKning hududiy filiallari telefon raqamlari havola etilmoqda.

“O'zbekiston pochta” AJning korxonalari telefon raqamlari

No	Hududiy filiallar	Telefon	No	Hududiy filiallar	Telefon
1	Toshkent shahri filiali	(71) 233-73-56	8	Xorazm filiali	(62) 228-51-71
2	Andijon filiali	(74) 223-26-24	9	Surxondaryo filiali	(95) 501-01-95
3	Qoraqalpog'iston filiali	(61) 222-14-43	10	Toshkent filiali	(71) 268-22-56
4	Qashqadaryo filiali	(75) 221-04-62	11	Samarqand filiali	(66) 229-49-27 229-51-16
5	Jizzax filiali	(90) 538-02-69	12	Farg'ona filiali	(73) 244-47-79
6	Namangan filiali	(69) 233-03-67	13	Sirdaryo filiali	(95) 510-01-94
7	Buxoro filiali	(65) 223-48-93	14	Navoiy filiali	(91) 335-66-62

“Matbuot tarqatuvchi” AKning korxonalari telefon raqamlari

No	Hududiy filiallar	Telefon	No	Hududiy filiallar	Telefon
1	Toshkent shahri	(71) 233-67-98	8	Xorazm viloyati	(62) 227-48-55
2	Andijon viloyati	(74) 223-82-13	9	Surxondaryo viloyati	(76) 221-91-18
3	Qoraqalpog'iston Respublikasi	(61) 222-88-63	10	Toshkent viloyati	(71) 199-76-66
4	Qashqadaryo viloyati	(75) 225-40-27	11	Samarqand viloyati	(66) 234-22-53
5	Jizzax viloyati	(72) 222-40-01	12	Farg'ona viloyati	(73) 244-50-77
6	Namangan viloyati	(69) 239-10-88	13	Sirdaryo viloyati	(67) 225-11-22 225-11-44
7	Buxoro viloyati	(65) 221-56-90	14	Navoiy viloyati	(36) 223-26-86

Yakka tartibdagi obunachilar uchun nashr indeksi: 149
Korxonalar va tashkilotlar uchun nashr indeksi: 150

Manzil: 100000, Toshkent sh., Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Tel.: (71) 233-50-55, faks: 233-99-15;

Bizni internetda ham kuzating!

www.marifat.uz

e-mail: info@marifat.uz



/marifat.uz



@marifatziyo

Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan. Indeks: 149, 150. G-229. Tiraji 10286. Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan, qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxona — (71) 233-50-55;
kotiyyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi — (71) 233-42-92 (faks), (71) 236-54-17.



“Marifat” dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriq qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatchi muharrir: Suhrob Ziyodov.
Navbatches: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Korxonalar manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

O'ZA yakuni — 00.10 Topshirildi — 00.15

1 2 3 4 5 6